

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

O`ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

O`ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

**BAQOYEVA MARHABO SHAVKATOVNANING
“Fitrat va badiiy tafakkur tadriji” MAVZUSIDAGI**

*5A-220101 – Adabiyotshunoslik mutaxassisligi bo`yicha magistr
akademik darajasini olish uchun taqdim qilingan*

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi,
dotsent I.M.G`ANIYEV

Buxoro - 2011

REJA:

KIRISH. Ishning umumiy tavsifi.

**I.BOB. FITRAT VA ILMIY-NAZARIY QARASHLAR
TARAQQIYOTI.**

I.1. Fitrat mumtoz adabiy asarlar xususida.

I.2. Fitrat – adabiy portretlar ustasi.

II.BOB. FITRAT VA MILLIY SHE`RIYAT TARAQQIYOTI.

II.1. Abdurauf Fitrat – iste`dodli shoir.

II.2. Milliy ong va milliy she`riyat.

III.BOB. FITRAT DRAMALARI VA MILLIY TAFAKKUR

III.1. Fitrat dramalarida milliy uyg`onish g`oyasi.

III.2. Fitrat dramalarida milliy ozodlik masalasi.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Fitrat hayoti va ijodining o`rganilish tarixi va taqdiri ham murakkab kechdi. Fitrat ijodining u yoki bu qirrasiga oid dastlabki qaydlar 20-30-yillarda yaratilgan turli tarix, tazkira, bayoz, maqola, risola va tadqiqotlarda uchraydi. Bular qatorida Cho`lponning “Chin sevish” (“Ishtirokiyun” gazetasi, 1920-yil, 25-noyabr), Turg’unboy (Qayum Ramazonov)ning “Abo Muslim” (“Turkiston” gazetasi, 1921-yil, 30-noyabr), Vadud Mahmudning “Chin sevish” (“Qizil O`zbekiston” gazetasi, 1921-yil), “Fitrat afandining yangi asarlari” (“Turkiston” gazetasi, 1923-yil 14-noyabr’); bundan tashqari N.G’anizoda, K.Aliyev, V.Xo`jaev kabilarning maqolalarini ko`rsatish mumkin. Bu maqolalarning ko`pchiligi Fitratning dramatik asarlariga bag’ishlangan.

Fitrat ijodini o`rganish sho`ro davridagi siyosiy qatag'onlar bois bir muddat to`xtab qoldi. XX asrda, asosan, 80-yillardan boshlandi. Izzat Sulton, Salohiddin Mamajonov, Baxtiyor Nazarov, Erik Karimov, Naim Karimov, Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Ahmad Aliyev, Sherali Turdiyev, Hamidulla Boltaboyev, Ilhom G'aniyev singari olimlar adib ijodining turli qirralarini o`rgandilar. 1988-yilda birinchilardan bo`lib Izzat Sulton va Salohiddin Mamjonovning “Madaniyatimizning ikki siymosi (Fitrat va Cho`lpon ijodi haqida ba`zi mulohazalar)” maqolasi nufuzli “O`zbekiston adabiyoti va san`ati” gazetasida bosilib chiqdi. Shundan keyin qator maqolalar bilan birga Begali Qosimovning “Istiqlol fidoyilari” ruknidagi “Maslakdoshlar” kitobi, Hamidulla Boltaboyevning “Abdurauf Fitrat”, “Fitrat va jadidchilik”, Ilhom G'aniyevning “Fitrat. E`tiqod. Ijod”, “Fitrat va Fitratshunoslik” kitoblari bosilib chiqdi. Fitrat ijodiga bag’ishlangan dissertatsiyalar yaratildi.

Bu borada, ayniqsa, Fitrat ijodini o`rganishni hali sho`ro siyosati o`z qilichlarini qayrab o`tirgan davrdayoq boshlagan Erik Karimov, milliy uyg`onish davri adabiyotini sistemali ravishda tadqiq etgan Begali Qosimov, ijodkor taqdiri va uning asarlariga oid arxiv materiallarini izchil e`lon qilib borayotgan Naim Karimov, Fitrat asarlarining nashr etilishiga bosh-qosh bo`layotgan, Fitratning ilmiy faoliyatini doktorlik dissertatsiyasi doirasida tadqiq qilgan Hamidulla Boltaboyev, adib dramalarini yaxlit holda o`rgangan Ilhom G`aniyevlarning xizmatlarini alohida ta`kidlash lozim bo`ladi. Xususan, istiqlol qatag`on qilingan adiblar, jumladan, Abdurauf Fitrat ijodining o`rganilishiga ham keng imkoniyatlar yaratdi. 1996-yilda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi va maxsus farmoni bilan Fitrat tavalludining 110 yilligi keng nishonlandi.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarda Fitrat ijodi yo muayyan olingan muammo doirasida o`rganilgan, yo adib ijodi yaxlit holda o`rganilgan. Ammo bu ishlarning birortasida Fitratning lirik merosi maxsus, yaxlit holda o`rganilgan emas. Biz B.Qosimov, N.Karimov, H.Boltaboyevning ilmiy tadqiqotlarida Fitrat she`rlariga oid umumiy kuzatishlarni ko`rishimiz mumkin.

Fitrat XX asr boshlarida dastlab an`anaviy she`rlar yozib, ulardagi mazmuni yangilagan, an`anaviy aruz va aruziy janrlarda yuksak vatanparvarlik ruhidagi yoniq, isyonkor she`rlar bitgan bo`lsa, keyinchalik birinchilardan bo`lib yangi o`zbek she`riyatini boshlab berdi, barmoq vaznida she`rlar yozdi, she`riyat nazariyasiga oid maxsus tadqiqotlar yaratdi, nasriy she`r janrida ijod qildi. Bir so`z bilan aytganda o`n asrlik an`anaviy she`riyatni ichdan yangilaganlarning old safida bo`ldi. Fitratning lirik she`rlari garchand son jihatdan ko`p bo`lmasa-da, ularda milliy nazm taraqqiyotining asosiy tamoyillari o`z aksini topdi. Shuning uchun ham Fitratning

she`riy ijodini maxsus tadqiq etish hozirgi adabiyotshunoslikning muhim muammolaridan biridir.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsad va vazifalari. Mazkur dissertatsiyani yozishdan maqsad – Fitratning badiiy tafakkur tadrijidagi xizmatlarini yaxlit holda tadqiq etish va ilmiy, badiiy asarlarining g`oyaviy-badiiy va estetik qimmatini aniqlash hamda baho berishdir. Magistrlik dissertatsiyasining vazifalariga esa quyidagilar kiradi:

- Fitrat ilmiy-nazariy asarlarining nashrlari va nazariy qarashlaridagi o`rni;
- Fitrat ilmiy-nazariy qarashlarining o`rganilish tarixi;
- Fitrat va milliy lirika taraqqiyoti;
- Fitrat va dramaturgiya taraqqiyoti;
- Fitratning ilmiy-nazariy va badiiy asarlarinig o`z davridagi va hozirdagi ahamiyatini oydinlashtirish;
- Fitratning badiiy tafakkur taraqqiyotidagi o`rnini ko`rsatish.

Magistrlik dissertatsiyasidagi yangiliklar quyidagilar:

- Fitratning o`z davrida e`lon qilingan ilmiy-nazariy, badiiy asarlari, to`plamlari haqidagi ma`lumotlar umumlashtirildi;
- Fitratning ilmiy-nazariy qarashlarining o`rganilish tarixi keng tahlil qilindi va tavsiflandi;
- Fitratning vazn, qofiya qo`llashdagi mahorati, shuningdek, badiiy-tasviriy vositalarni istifoda etishdagi mahorati ilmiy tahlil qilindi;
- Fitrat lirikasining milliy she`riyatni rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berildi;

- Fitratning dramaturgiya taraqqiyotidagi xizmatlari o`z davri va hozirgi zamon adabiyot taraqqiyoti talablari mezonlari asosida o`rganildi.

Magistrlik ishining tadqiq uslubi. Prezident Islom Karimovning milliy g`oya va mafkura hamda ma`naviyat haqidagi qarashlari metodologik asos qilib olindi. Mazkur mavzuni yoritishda, asosan, analiz va qiyosiy metoddan foydalanildi.

Magistrlik dissertatsiyasining ob`ekti. Mazkur magistrlik dissertatsiyasini yozishda, asosan, Fitrat “Tanlangan asarlar”i 5 tomligidan foydalanildi.

Magistrlik dissertatsiyasining tarkibiy tuzilishi. Ish kirish, uch asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

BIRINCHI BOB

FITRAT VA ILMIY-NAZARIY QARASHLAR TARAQQIYOTI.

1.1. Fitrat mumtoz adabiy asarlar xususida

Fitratni mumtozshunos olim sifatida umuman mumtoz adabiyot, biror shoirning umuman ijodigina emas, balki ayrim olingan asarlar ham qiziqtirgan. Bu borada uning “Devoni lug’atit turk”, “Hibatul haqoyiq”, “Ming bir kecha” haqida yaratgan tadqiqotlari, “Qutadg’u bilig”, “Farhod va Shirin” dostoni to’g’risida” nomli maqolalari e’tiborga molikdir.

Hozirgi adabiyotshunoslikda «Qutadg’u bilig” asarining uch qo’lyozma nusxasi ma’lum: Vena, Qohira va Namangan nusxalari. Hozir Toshkentda saqlanayotgan va ilmda Namangan nusxasi deb nomlangan uchinchi nusxasi XX asrning boshlariga kelib ma’lum bo’ldi. Bu nusxaning topilishida buyuk olim Ahmad Zakiy Validiy To’g’onning roli katta bo’ldi. U 1913-yilning yozida Farg’onaga safar qiladi va Muhammad Xoja Eshon Lolaresh degan kishining qo’lida «Qutadg’u bilig”ning nodir nusxasini ko’rib qoladi. Ammo asarni qo’lga kiritish Validiyga nasib etmaydi. 1914-yilda Sankt-Peterburgda ilmiy jamoatchilikka ma’lum qilingan bu nusxani qo’lga kiritish va ilk bora tadqiq etish Abdurauf Fitratga nasib etgan.

1924-yilda Fitrat Namanganga boradi, o’zining muomalasi bilan eshonni zabt etadi va «Qutadg’u bilig»ning nodir nusxasini olishga muvaffaq bo’ladi. Olim asarni chuqur o’rganadi. Ilmiy jamoatchilik va adabiyot ixlosmandlarini mazkur nodir asar bilan tanishtirish maqsadida «Qutadg’u bilig” maqolasini yozadi va “Maorif va o’qituvchi” oynomasining 1925-yil 2-sonida chop ettiradi.

Fitrat «Qutadg’u bilig”ni zargarona bir injiqlik bilan o’qib chiqqan, unga xolis baho berishga harakat qilgan. «Qutadg’u bilig”

maqolasi ushbu asar haqidagi dastlabki tadqiqotlardan biri bo`lib, asarning hamma jihatlarini (mavzu va g`oyasi, badiiyati, vazni, adabiyot tarixida tutgan o`rni) qamrab olgan. Ushbu maqolada ham Fitrat o`zining asosiy prinsipi – adabiyotni ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan yaxlit holda olib tekshirish prinsipidan chekinmagan holda ish ko`rgan. Fitrat “Qutadg`u bilig”ni turkiy adabiyotning ilk yirik namunasi sifatida yuqori baholaydi. Asar vaznining «Shohnoma» vaznida ekanligi Fitrat tomonidan to`g`ri qayd etilgan va keyingi adabiyotshunoslik ushbu fikrni qayta-qayta takrorlab kelmoqda. Fitrat asar qo`liga tushgach, u haqda eski fikr o`zgarganligini e`tirof etishdan ham istihola qilmaydi: “Bir to`p olimlarning aytganlariga ishonib, men ham bu kitobning vaznida ancha kamchiliklar, to`lmog`on yerlar bor deb ishongan edim. Bukun esa bu fikrda emasman. Vazn juda nozik chiqqon. Ba`zi joylarida “Shohnoma” ohangining hidi kelib turadir”¹.

Fitratning maqolasi yana shunisi bilan e`tiborliki, u faqat o`zining qo`lidagi nusxa haqida fikr yuritmaydi, balki asarning boshqa nusxalari bilan chog`ishtirib, bir xulosaga kelishga urinadi. Uningcha, “Qutadg`u bilig”ning to o`sha kungacha ma`lum bo`lgan nusxalarida nasriy muqaddima, mundarija ma`nosidagi “Fixrast” va keyin asosiy she`riy qism keladi: olim qo`lidagi nusxada esa nasriy muqaddima ancha kam, aniqrog`i, bir yarim sahifadan iborat.

Fitrat “Qutadg`u bilig”da chinakam matnshunos, uslubshunos olim sifatida ko`rinadi. U “Qutadg`u bilig”ning uslubidan, asarning umumiy ruhidan kelib chiqib, to o`ziga qadar “Fixrast” ham Xos Hojib qalamiga mansub, degan fikrga qo`shilolmasligini ochiq bayon etadi: “Menim fikrimcha, bizning qo`limizdog`i nusxaning “Fixrast”da ko`rsatilgan bob qismlari bilan matndagi “Bob” qismlari orasida ancha

¹ O`zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. – T., Fan, 1977. – 1-tom. – 127-bet; Mallayev N. O`zbek adabiyoti tarixi. – T., O`qituvchi, 1970. – 167-bet.

oyirma borlig'i ko`rinadur: kitobning ichida xudoni, payg'ambarni, sahobalarni, Qaro Bug'raxonni moxtob yozilg'on to`rt bobning ismlari "Fixrast"da ko`rsatilmaydir". Shundan so`ng Fitrat asardan ayrim parchalar keltiradi, yana ayrim boblarning asar matnida mavjud bo`lgani holda "Fixrats"da ko`rsatilmaganini ta`kidlaydi va shundan kelib chiqib, "Fixrast" boshqa kishi tomonidan yozilgan, degan fikrni dalillaydi.

Fitrat dostonning hajmini ham boshqa nuxsalari bilan solishtiradi, o`z qo`lidagi nusxani misrama – misra sanab chiqadi: "Kitobning tizim qismi esa 6329 baytdan iboratdir. Tugal "Qutadg'u bilig"da 6500 bayt borligi yoziladir. Demak, bizning qo`limizdog'i nuxsaning 171 bayt kamchiligi bor". Fitrat katta afsus va nadomat bilan kitobning titilib ketganligi, betlar alkash – chalkash tikib tashlanganligini qayd qiladi va bu chalkashlikka kitobning boshqa nuxsalari bilan chuqur solishtirish orqasida barham berish mumkinligini ta`kidlaydiki, bu masala hali ham adabiyotshunosligimizning dolzarb masalalaridan biri sifatida qolib ketmoqda.

Fitratning uslubshunos ekanligi, asarning janriy xususiyatlari haqida yozganlarida ham yaqqol ko`rinadi. Olim "Qutadg'u bilig" masnaviy shaklida yozilgan bo`lsa-da, unda ruboiylarga ham keng o`rin berilganligini ta`kidlab ko`rsatadi. Ammo, "kitobda ruboiylarg'a ayriacha ahamiyat berilg'on, oltin suvi bilan yozilg'on" bo`lishiga qaramasdan, "turkchilik olimlaridan" birortasi unga ahamiyat bermagan. Fitrat o`z qo`lidagi nusxaning 171 bayt kamchiligi borligidan kelib chiqib, asardagi ruboiylar soni balki bundan ham ko`p bo`lgandir degan fikrni o`rtaga tashlaydi. Fitrat mazkur ruboiylar ularda "Tingla emdi, shoir nima degan!", "Shoir bu masalaga o`xshotib shu so`zni aytadir" deyilishiga qaramasdan, aynan Yusuf qalamiga mansub ekanligini asoslab beradi: "... bu ruboiylarning boshqa shoir tomonidan aytilgani, Yusuf Hojibning esa u shoirning

ruboiylaridan o`z kitobiga kerak bo`lg`onlarini olg`oni xotirga keladir. Biroq ruboiylarning vazni “Qutadg`u bilig” vaznidadir, uslubda ham oyrimsi hech ko`rinmaydir.

Yusuf Hojib zamonida kitobiy adabiyotda, turk xalq adabiyotida, fors adabiyotida hikmatli so`zlar ko`p bo`lg`on. Shoir shunlardan foydalang`on, shunlarni o`z kitobining vazn ham uslubiga aylantirib, kitobini shunlar bilan bezatkan. Kitobning muqaddimasida shoir tomonidan “Bu kitobni Chin-Mochin hakimlarining masalalari, she`rlari bilan bezatdim”, degan so`zni bizning shu fikrimiz bilan izoh etmak mumkindir”.

Fitrat qo`lida mavjud nusxaning ko`chirilgan vaqtini ham aniqlashga urinadi. Uningcha, kitobning “suls” xati bilan yozilganligi, bu yozuvning esa tarixi “ta`liqdan” ham chuqurroqqa kirib borishi “Qutadg`u bilig”ning Namangan nusxasi bundan besh asr burun ko`chirilgan, deyishga asos beradi. Bu esa mazkur kitob uning uyg`ur yozuvi bilan ko`chirilgan Vena nusxasi bilan tengdosh yoki undan ham qadimiyroqdir, degan xulosani keltirib chiqaradi.

Fitratga qadar Yusuf Xos Hojib asari “Qutadg`u bilig” deb nomlab kelingan. Bu xatoning boshlanishi mashhur sharqshunos Radlovga borib taqaladi. Fitratning ta`kidlashicha, asar Ovropa olimlari orasida shu nom bilan mashhur. Ammo bu o`qish yanglishdir. Fitrat so`zlarning lug`aviy ma`nosidan kelib chiqib, Yusuf dostonining nomi “Qutadg`u bilig” deb o`qilishi kerak, deydi. Binobarin, ham Misr (Qohira) nusxasida, ham Namangan nusxasida doston nomi shunday yozilgan: “Qut” – baxt, “qutudg`u”, “qutuvg`u” – “baxtliklanish”, “bilik” – “bilim” bo`lib, «Qutadg`u bilig”ning ma`nosi “Baxtliklanish bilimi” bo`lodir”, deb yozadi Fitrat. Qizig`i shundaki, bugungi istifodada mashhur bo`lgan “Saodatga eltuvchi bilim” nomlanmasi mazmun jihatdan Fitrat izohiga u qadar yaqin bormaydi. “Saodatga eltuvchi bilim” birikmasida “bilim” markaziy o`rinda turibdi, demak,

Fitrat izohida esa Yusuf Xos Hojibning kitobi baxtliklanish bilimi, ya'ni baxtga erishtiruvchi bir fandır, baxt yo'lini ko'rsatuvchi kitobdir, degan ma'no bor. Bizningcha, Fitratning atamasi haqiqatga yaqinroq.

Fitrat har qancha turkiyparast bo'lmasin, Yusuf dostonining muhim ahamiyatga ega ekanligini, uning mavaffaqiyatli chiqqanligini, ilk turkiy doston sifatida ahamiyatli ekanligini ta'kidlamasin, dostonni butunlay ko'klarga ko'tarmaydi, asarga ob'yektiv yondoshishga, xolis baholashga intiladi. Fitrat dostonning badiiyati u qadar yuksak emasligini aytishdan tortinmaydi: bu turkiy adabiyotga, uning ilk namunasi sifatida dostonning obro'yiga soya soladi, deb noxolislik yo'lidan bormaydi. Uningcha, "Qutadg'u bilig" san'atli bir she'r majmuasi emas, balki manzum bir axloqiy, idoriy kitobdir. Undagi timsollar ham bugungi adabiyotda qurilayotgan jonli, hayotiy odamlar emas, balki shoir g'oyalarining targ'ibotchisidir: "Mana shul to'rt majoziy kishilarni shoir bir – biriga qurushtirib, so'ylashtiradir. Aytmak istagani so'zlarni, bermak istagani nasihatlarini shularning tilidan aytib eshittiradir. Berilaturg'on nasihatlarini ... uzun. Juda uzun qilib so'zlamakdan iborattur.

Albatta, bu kunning kishilari uchun bu nasihatlardan yorim choqoliq foyda yo'q".

Xulosa qilib aytganda, "Qutadg'u bilig" maqolasi ham Yusuf dostonining ilk tadqiqi sifatida, ham Fitratning olimlik faoliyatini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Fitratning alohida olingan asar tahliliga bag'ishlangan maqolalaridan yana biri "Farhod va Shirin" dostoni to'g'risida" maqolasidir. Maqola "Alanga" oynomasining 1930-yil 1-2-sonlarida bosilgan. Maqolada qiyosiy tahlil usulidan foydalanilgan. Fitrat shu mavzuda yozilgan Nizomiy, Xusrav va Navoiy dostonlarini tahlil qilar ekan, asosiy diqqatni Navoiy dostoniga qaratadi. Olim izchil tahlil

yo`lidan boradi, dostonlarni voqeama-voqea tahlil qiladi, o`rni kelganda tarixiy manbalarga ham murojaat qila boradi.

Ushbu maqolada Fitrat Navoiy falsafasi va Sharqda “Farhodu Shirin” mavzusida chuqur tekshirishlar qiladi. Bu maqola qiyosiy tahlilning yetuk namunasi sifatida ham alohida ahamiyatga molik. Chunki Fitrat bunda Navoiy “Xamsa”sining ikkinchi dostonini Sharqda keng yoyilgan “Farhodu Shirin” syujeti bilan chog’ishtirib, bu syujet dastlab Firdavsiyning “Shohnoma”sida, so`ngra Nizomiy va Xusrav Dehlaviyning “Xamsa”larida qo`llanganini aytish bilan cheklanmay, asosiy e`tiborni Navoiy dostonining o`ziga xos jihatlarini o`rganishga qaratadi. Og`zaki va yozma adabiyot tarixida “Farhodu Shirin” syujetining paydo bo`lishi hamda uning og`zaki adabiyotda rivoyat, ertak va cho`pchak shaklidagi ko`rinishlari Firdavsiy “Shohnoma”si tufayli ilk bor yozma adabiyotga kirib kelganligini o`rinli qayd qiladi. Sharq adabiyotining ulug`lari sanalgan Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiy “Xamsa”larida ko`ringan bu doston nisbatan o`rinli kiritilgani, ularning o`zaro qiyosi natijasida kuzatiladi. Fitrat bunday qiyosiy tahlil natijasida Farhod va Shirinlarning asl vatani, voqea sodir bo`lgan hududlar hamda Farhod obrazining asosiy qahramon darajasiga ko`tarilish yo`llarini chuqur tushuntirib beradi.

Maqolada Fitratning Navoiyga katta hurmat bilan qaraganligi sezilib turadi. U Navoiyning san`atkorligi, badiiy mahoratini ko`rsatish maqsadida asardan katta-katta parchalarni maqolaga olib kiradi. Bu jihatdan Farhod va Xusrav bahsi Fitratni juda maftun etadi. U yozadi: “... Xusrav Parviz bilan Farhod orasida bir musohaba tasvir qilinadir. ... Dostonning hayajonli bir sahifasini tashkil qilganligi hamda burungi shoirlarning “so`zga ustalik”larini ko`rsatishga munosib bir o`rin bo`lganligi uchun Xusrav Dehlaviy Alisher Navoiy ham bu musohabani tasvir qilmay o`tolmaganlar. Biz musohaba haqida

boʻlgan Xisrav Dehlaviyning sheʼrlarini gapirmaymiz. U Nizomiyning bu haqdagi sheʼrlariga qaraganda tubandir. Navoiy bilan Nizomiyning bu sahifalarini yondashtirib maqolamizga koʻchiramiz. Fitrat bunday koʻchirishdan ikkinchi bir maqsadni – Navoiy Nizomiyning tarjimoni boʻlmagan degan fikrni ilgari surishni, Navoiyga ana shundan taʼna toshlarini otayotgan adabiyotshunoslarga har ikki shoirning oʻz asarlarini yonma-yon keltirish orqali javob berishni nazarda tutgan. Umuman, maqola Navoiyni ana shunday nooʻrin malomatlardan himoya qilishga, uning ulugʻ turkiy shoir boʻlganini aynan qiyosiy tahlil misolida isbot etishga qaratilgandir. Fitrat bu mulohazani ham Nizomiy va Navoiy asarlaridagi voqealar qiyosi, ham uslubiy oʻziga xosliklar, ham ikki shoir tayangan metodning turlichaligi orqali asoslay beradi. U bir oʻrinda yozadi: “Shu Bahrom voqeasining oʻzi juda yaxshi koʻrsatadiki, Navoiy dostonini Nizomiynikidan boshqacha shaklga qoʻymoq uchun koʻproq tarixiy asarlarga emas, xayolga tayanadir”.

Fitrat shu narsani yana alohida taʼkidlab koʻrsatadiki, Farhodu Shirinlar bilan bogʻliq syujetning turkiylar orasida mashhur boʻluvi Navoiy nomi bilan bogʻliq. Navoiy dostonining oʻzi esa undan keyin yaratilgan bir qator “Farhod va Shirin”lar orasida alohida oʻrin tutadi.

Fitrat mumtoz adabiyot va adabiyot nazariyasining nodir bilimdoni edi. Bugungi adabiyot muxlisiga uning bu borada qilgan ishlarini, yozganlarini sanab oʻtishning hojati yoʻq. Yaqinda nashrdan chiqqan birgina “Adabiyot qoidalari” kitobi Fitratning adabiyot nazariyasini naqadar chuqur bilganligi va oʻz bilganlarini loʻnda, sodda, tushunarli qilib ifodalab bera olganligini koʻrsatuvchi bir koʻzguvchi. Bugungi adabiyotshunoslar bahslashib, talashib, yoqa yirtib muhokama etib yurgan masalalarni Fitrat 20-yillardayoq hal etgan va ommabop qilib tushuntirib bera olgan ekan. Bu mulohazalar shuni oldindan tasdiqlaydiki, Fitrat lirikasi badiiyatini tekshirish, undagi

badiiy san`atlar, kompozitsion qurilish masalalarini tadqiq etish hech qachon yo`q narsani bor qilish yoki Fitratni zo`rma-zo`raki mahorat sohibi qilib ko`rsatish emas, balki adabiyot nazariyasini shu qadar teran bilgan va tadqiq etgan olimning shoir sifatida o`sha bilganlarini amalga tadbiiq eta olganligini ko`rsatishdir.

Fitrat she`rlarini bir marta o`qib chiqqan kishi ularda chindanam jozib bir kuch borligini sezadi. Bu she`rlarda dastlabki o`qishdayoq payqaladigan holat uyushiq bo`laklarning mo`l-ko`l qo`llanganligidir. Adabiyot nazariyasida bunday uyushiq bo`laklar siyoqatu-l-a`dod 9sodda otlarning uyushib kelishi), tansiqu-s-sifat (sifatlarning uyushib kelishi), gradatsiya yoki tadrij (darajama-daraja rivojlantirib borish) singari istilohlar bilan ataladi. Fitrat o`z she`rlarida ana shu tasviriy vositadan ko`p foydalanadi.

1.2. Fitrat – adabiy portretlar ustasi

Fitrat alohida shoirlar ijodi haqida ham bir qancha maqolalar, risolalar e`lon qilgan. “Fors shoiri Umar Hayyom”, “Bedil”, “Mashrab”, “Yassaviy kim edi?” kabi ishlarini shu jumlagi kiritish mumkin. Ana shunday adabiy portretlardan biri “Fors shoiri Umar Hayyom” risolasidir. Ushbu kitobcha 1929- yilda O`zdavnashrning Samarqand bo`limida nashr etilgan. Biz ushbu nashrning kserokopiyasidan foydalandik.

Asar “Bir-ikki so`z” deb nomlangan kirish maqolachasi bilan ochiladi. Unda aytilishicha, Fitrat dastlab Umar Hayyom haqida kichik bir maqola yozadi va uni “Qizil qalam” majmuasida e`lon qiladi. Unda Hayyomning tarjimai holini mukammallashtirishga urinilgan. Bunda Fitrat g`arb olimlari tayangan manbalarni asos qilib olgan. Fitratning yozishicha, maqola terishga berilgandan so`ng bir kitobcha qo`liga tushib qoladi. Bu Xorazmda arab tilida Imom Zahiriddin Abdul Hasan al-Bayhaqiy tomonidan yozilgan “Tatimmatu savvon ul-hikma”

kitobchasidir. Kitob Hayyom zamonida yozilgani bilan qadrli edi. Kitobcha qo`liga tushgach Fitrat maqolada Hayyom haqida aytgan ayrim fikrlarini o`zgartirish maqsadida nashriyotga yuguradi. Ammo maqola nashrga berib bo`lingan edi. Shundan so`ng Fitrat maqolani mana shu yangi manba asosida qayta ishlaydi va bu ishdan ko`zda tutgan maqsadini: “Sharq adabiyotini tekshiruchi G`arb olimlarini bu yangi ma`hazdan xabardor etmakdir” deb belgilaydi.

Mana shu holning o`zi ham Fitrat har bir yozgan narsasiga, hatto u kichkina bir maqola bo`lsa-da, katta mas`uliyat bilan yondoshganligini ko`rsatadigan muhim faktdir.

Fitrat Umar Hayyom haqida so`z boshlashdan oldin fors adabiyotiga umumiy bir qarash qiladi. Oldingi bobda aytganimizdek, bu bo`limda olim fors adabiyoti shakllangan va rivojlangan ijtimoiy zamin – ijtimoiy-siyosiy hayot, fors adabiyotining xarakterli janrlari va ularning taraqqiy etish sabablari, shu janrlarning etakchi vakillari, ruboiy janrining maydonga kelish va taraqqiy qilish omillari xususida so`z yuritadiki, bu keyinroqda Umar Hayyom haqida aytilajak mulohazalarning chuqur anglanishiga yo`l ochadi. Ana shundan keyingina Fitrat Umar Hayyom haqida yozishga chog`lanadi.

Bir narsani alohida ta`kidlash kerakki, Fitrat Umar Hayyom asarlarini mavzu va g`oyalari, badiiyati jahatdan tahlil yoki tadqiq etishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ymagan. Risoladan maqsad shoirning mukammalroq tarjimai holini yaratish, bu tarjimai holni to risola yozilgunga qadar mavjud bo`lgan xatolardan tozalash, Umar Hayyom maslagini oydinlashtirish bo`lgan. Ana shu maqsaddan kelib chiqib Fitrat o`nlab mo`tabar manbalarga murojaat etadi, ularni bir-biri bilan chog`ishtiradi, asosli, haqiqatga yaqinlari asosida buyuk ruboiynavis shoirning qiyofasi, hayot yo`lini ko`z oldimizda gavdalantiradi. Xuddi ana shu o`rinlarda ham Fitrat “haqiqat bahslarda

ochiladi” degan aqidaga amal qilguvchi chinakam olim sifatida namoyon bo`ladi.

Fitrat aniqlashga kirishgan birinchi masala Umar Hayyomning ismi va unvonini aniqlashdir. Qizig`i shundaki, biz hozir ko`proq va xo`broq shoir sifatida taniydigan Umar Hayyom, Fitratning yozishicha, o`z davrida va keyingi davrlarda Evropa hamda Amerikada hakim, faylasuf va munajjim sifatida mashhur bo`lgan. Olim yozadiki, Umar Hayyomning mukammal tarjimai holi berilgan biror manba yo`q, balki, mag`riblik olimlar har qaysi manbadan ikki-uch jumla topib, shular asosida Hayyom avtobiografiyasini yaratganlar. Fitratning o`zi ham shu yo`ldan boradi, ammo yevropalik olimlar tayyor qilib bergan narsani shunchaki takrorlab qo`ya qolmaydi.

Fitrat “Hayyom” so`zining lug`aviy ma`nosi “chodirchi” ekanligini ta`kidlar ekan, bu shoirning ota kasbi bo`lsa kerak, deydi. Keyingi davr adabiyotshunosligi mana shu mulohazani Fitratdan istifoda etadi. Ammo Fitrat boshqa ayrim manbalarda, shoirning o`zi yozgan “Jabr va muqobala” kitobida bu taxallus “Hayyomiy” tarzida ham uchrashidan kelib chiqib, bu taxallus emas, balki oila oti, ya`ni familiya bo`lishi ham ehtimol, degan fikrni aytib o`tadi. Bizningcha ham, keyingi fikr haqiqatga yaqinroq. Chunki maqolaning keyingi qismlarida Umar Hayyomning shohlar saroyida xizmat qilganligi (faqat shoir sifatida emas, hakim va munajjim sifatida ham) aytiladi. Agar Hayyom hunarli kishi bo`lganda, uning saroyda xizmat qilishiga hojat bo`lmas edi.

Fitrat maqolada Hayyomning tug`ilgan joyini ham aniqlashga harakat qilgan. Uning yozishicha, shoirning nishopurlik ekanligi haqiqatga yaqin va juda ko`p manbalarda ko`rsatilgan bo`lsa-da, uni Marv shahri yaqinidagi Lakar shahrida tug`ilgan, deb da`vo qiluvchilar bor. Fitrat ana shunday fikrning boshida turgan nimis olimi Fridrix Ruzanning qarashlarini ishonchli manbalar va ishonchli

dalillar asosida rad etadi. Uningcha, bu xato arabcha “u”ni “o” deb o`qishdan kelib chiqqan. Aslida Fitratni nashriyotga yugurib borishga va maqolaning e`lon qilinishini to`xtatib qolishga urinishi, bu urinish zoye ketgach, maqoladagi ayrim da`volarini o`zgartirib, yangi risola yozishga majbur etgan narsa ham ana shu xato edi: “...Almon olimi do`ktor Fridrix Ruzan tomonidan Hayyomning Lukar shahrida tug`ilg`onig`a oid maydonga tashlang`an fikrning ham churuk ekanin ko`rsatadir”.

Fitrat maqolada Umar Hayyom hayotiga oid juda ko`p qiziqarli fakt va hikoyalar keltiradiki, bularning hammasi o`quvchi ko`z o`ngida Hayyom siymosini mukammallashtirishga xizmat qiladi. Fitratning yozishicha, Umar Hayyom dindor kishi bo`lmagan, munajjim sifatida podshohlar yonida ko`p darajada hurmatli bo`lgan. Uning alohida xizmatlaridan yana biri Malikshohning buyrug`i bilan tuzilgan taqvimni isloh qilish ilmiy hay`atiga (sakkiz kishilik) boshchilik qilgani va ularning sa`y-harakatlari bilan “Taqvimi Jaloliy” nomli Yevropada ham mukammalligi e`tirof etilgan taqvimning yaratilganligidir.

Fitratning maqolasida Umar Hayyomning shaxsiy xarakteriga bog`liq xususiyatlar ham qayd etilgan, bu fazilatlar, xususiyatlar shoir ruboiylarining mazmunini tushunishga kalit vazifasini o`tay bilishi bilan qimmatlidir. Ya`niki, Hayyom shod tabiatli, hayotsevar, ammo tor ko`ngilli, asabiy kishi bo`lgan ekan. Fitratning ishonchli manbalar asosidagi bu qaydlari bugun ham Hayyom lirikasini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi shubhasiz.

“Hayyomning asarlari” deb nomlangan ikkinchi bo`limda shoir asarlarining ro`yxati keltiriladi. Ammo Fitratning ta`kidlashicha, bu ro`yxat mukammal emas.

Fitrat Hayyomning ruboiynavisligi haqida fikr yuritar ekan, bu faqat Hayyom ijodi uchun xos holat emas, balki davrning

xususiyatidir. Hayyomga nisbat berilgan ruboiylar besh mingtagacha yetsa-da, Hayyomga taalluqlilari 250-300 tachadir, deydi Fitrat. Uningcha, ruboiylarning muallifini aniqlashdagi qiyinchilikning asosi – ularda shoir taxallusining qo`yilmasligi. Ammo Fitratning ta`kidlashicha, Hayyom ruboiylarini shoir ijodiga mansub bo`lmaganlaridan ajratish tamoyillari, usullari – “asl ruboiylarni aniqlab, “mana” deb ko`rsatish yo`lida ko`zlangan choralar ishonchli, aniq, “qanoatlanarli” emasdir. Ana shunday o`rinlarda Fitrat haqli ravishda injiq olim sifatida namoyon bo`ladi. Ammo maqolaning maqsadidan kelib chiqib bu “choralar”ning “qanoatlanarli”larini ko`rsatib bermaydi. Balki nobop zamona imkon berganda Fitrat shu ishni ham amalga oshirarmidi...

Fitrat Hayyomning maslagi masalasiga alohida bo`limda keng to`xtaladi. Chunki maslak – shoir ijodi mohiyatini ochuvchi kalit. Fitrat Hayyomni tushunishda uch yo`nalish borligini ko`rsatadi: shoirni sarxush (piyonista) deb biluvchilar, uni so`fiy deb anglovchilar va o`z jamiyatidan yuqori turgan bir dohiy deyuvchilar. Fitrat ularning birortasiga ham qo`shilmagani holda, uning tarjimai holi va asarlaridan kelib chiqib shoir dunyoqarashini belgilashga harakat qiladi. Hayyom tabib, munajjim, faylasuf va shoir bo`lgan. Hayotining asosiy qismi saroyda, shohlar xizmatida o`tgan. Hayyomning tasavvuf maslagida bo`lmaganini eski manbalar ochiq aytganlar. Yana Fitratning izlanishlari natijasiga ko`ra uning shunday ruboiylari borki, ularni aslo tasavvuf bilan kelishtirib bo`lmaydi. Chunonchi, Fitrat mashhur mutasavvuf olim va imom Najmiddin Roziyning: “Maqsad-ul ibod” kitobiga asoslanib, Roziy uni dahriy, tabiiy, falsafiyning fozillaridan deb Umar Hayyomni tanlab oladir-da, so`kadir, deydi. Fitrat Hayyom ruboiylari zohiran tasavvufona ekanligini juda chiroyli qilib obrazli shunday ifodalaydi: “Uning ba`zi nuqtalarda so`fiylar bilan birlashkani boshqa-boshqa uyalarga bormoq

uchun havoda uchib yurgan ikki qushning yo`l orasida birlashib, yana ayrilishlarig'a o`xshaydir”.

Fitrat Hayyomni o`z davrida yuqori ko`tarila olgan dohiy deyuvchilarni ham rad etadi: “Jamiyatdan, muhitdan bir turli ta`sirlanmagan bo`lg`ani sinfning talablaridan bir qismiga javob berishni o`z ustig`a olmag`an bir adibning, bir adabiyotning bo`lishi mumkin emas”. Fitratning fikricha, Hayyom ruboiylarining asl mohiyati “saroydagi xizmatlarning tashviqot qismini (ya`ni qasidachilikni) emas, kayf-safo kechalarini, may va ma`shuq majlislarini idora qilish qismini o`z ustiga olg`anligi”dir. Bugungi adabiyotshunoslik Umar Hayyom ruboiylaridagi “may” ramzan dunyoviy hayot ekanligini da`vo qiladi². Fitrat esa ishonchli manbalarga, shoirning tarjimai holiga asoslanib: “Umar Hayyomning “may”i xudoning ishqiqi emas, saljuq sultonlari saroyida ichilgan “zum” mayi bo`lg`an”, - degan mulohazani olg`a suradiki, balki adabiyotshunoslikning keyingi tadqiqotlari Hayyom haqida hozirgi adabiyotshunosligimizda mavjud va Fitratga fikriga oppozitsiyada turgan Hayyomni tushunishni rad etar va Fitratga tushunishga qaytar. Fitratni qoyil qoldirgan holat, Hayyomning san`atkorligi, san`atning dohiysi ekanligidir. “Hayyom she`rining eng katta vazifasi, yuqorida ko`rganimiz kabi may majlislarini maqtamoq, bu majlislarni davom qildirishga saroy egalarini, davlatli feodallarni tashviq qilmoq, shularning tegrasida yurgan, shularning kissasiga qarab turgan parazitlarning fikrlarini himoya qilmoqdir.

Hayyom o`zining usta san`ati soyasida bu vazifani haqiqatan yaxshi bajara olgan”, - deb yozadi u. Risola Hayyom ruboiylaridan bir qanchasini tarjimasi bilan berish ila tugatiladi.

Umuman olganda, bu risolada Umar Hayyomning mukammal tarjimai holi yaratilgan, qaysi maslakda, g`oyada ekanligi aniq isbot-

² Mallayev N. O`zbek adabiyoti tarixi. – T., O`qituvchi, 1970. 125-126-betlar.

dalillar bilan ochib berilgan. Bu esa risolada o`z zimmasiga olmaganini – Hayyom ijodini tahlil qilishda dasturilamal bo`lishi tabiiy.

Fitratning alohida ijodkorga bag`ishlangan yana bir asari “Bedil” kitobidir. Fitrat dastlab “Mirzo Bedil” nomli maqola yozadi va “Tong” oynomasining 1920 -yil 2-sonida chop ettiradi. Bu maqola Fitrat bedilshunosligining ilk mevalaridan sanaladi. 1923- yilda esa olim “Bedil. Bir majlisda” nomli kitobini yozadi. Bedilshunoslikning har ikkala namunasi birlashtirilib, 1923- yilda Moskvadagi “Markaziy Sharq” nashriyatida chop etilgan. Asarning janrini Hamid Olimjon qanday belgilaganini yuqorida aytgan edik. Fitratshunos olim H.Boltaboyev uni “badeha” deb ataydiki, bu atama, bizningcha, asarning janriy xususiyatini ocha olmaydi. Boltaboyev “Abdurauf Fitrat” nomli qo`llanmasida L.Klimovich, E.Karimov, A.Aliyev singari adabiyotshunoslar “Bedil” asarining janrini ilmiy ateistik ocherk deb belgilaganlarini qayd etadi. Bizningcha ham bu asarni ilmiy ocherk deyish haqiqatga biroz yaqinroq. Fitratning o`zi esa asarning janri haqida gapirmagan. Mazkur ishning maqsadi “Bedil”ning janriy xususiyatlariga keng to`xtalishni nazarda tutmaganligi uchun, biz batafsil tahlillardan saqlanamiz. Ammo bir narsani ta`kidlash kerakki, ushbu asardagi singari ilmiy mazmuni qiziqarli, ommabop shaklda berish tamoyili, aniqrog`i usuli 90-yillar adabiyotshunosligida ancha kuchaygan. Bunday tahlillarni S.Salimov, M.Olimov, I.G`aniyev, O.Otaxonov singarilarning ayrim ishlarida kuzatish mumkin.

Biz yuqorida “Umar Hayyom” risolasini tahlil eta turib, unda asosan, shoirning mukammal tarjimai holini yaratish nazarda tutilganligi, risola o`z oldiga Hayyom ruboiylarini ilmiy tadqiq qilishni maqsad qilib qo`ymaganligini ta`kidlagan edik. “Bedil. Bir majlisda” ilmiy ocherkida esa shunga teskari holatni – ya`ni nuqul Bedil asarlarining tahlilini uchratamiz. Ocherk chindanam bir majlisda

Bedil asarlarining tahlil etilishi yoritiladi. Bu yerda bizni qiziqtirgan asosiy narsa asarning qiziqarli, hikoyanamo tomoni, Fitratning bu boradagi mahorati yoki topqirligi emas, balki Fitratning olim sifatida Bedilni qay darajada kashf eta bilganligidir.

Ma`lumki, Bedil fors adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, so`fiy shoir, faylasuf va insonparvar shaxsdir. “Bedil. Bir majlisda” ilmiy ocherkidan ko`rinib turibdiki, Fitrat Bedilni mana shu tariqa har tomonlama inkishof etishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ymagan. Uni faqat ulug’ shoirning gumanizmi qiziqtirgan. Bu bevosita Fitrat yashagan davr va adibning o`z dunyoqarashidan kelib chiqqan bo`lsa kerak.

Ilmiy hikoyaning donishmand qahramoni Qutlug’ dastlab o`z majlisdoshlariga Bedil haqida umumiy tushuncha beradi: “Bedil musulmon islomdagi so`l “vahdati vujudchilardan”. “Vahdati vujud” mazhabining musulmonlik bilan qanday munosabati bor, “ilohiy fikr” bilan qanday munosabati bor. Bu to`g`rilarda bu majlisda gapirmaymiz. Bedil kim bo`lsa bo`lsin. O`z zamonidagi insonlik jamiyatining qurilishidan rizo bo`lmagan, insonlarning ko`pchiligini saodatdan uzoq ko`rgan hamda shuning uchun qayg’urgan bir faylasufdir”. Aytish mumkinki, Fitratning o`zi ham o`z zamonasining insonlik jamiyatidan rozi bo`lmagan, insonlarning ko`pchiligini saodatdan uzoq ko`rgan va shuning uchun qayg’urgan. ehtimol, shuning uchun Bedil ijodi va falsafasi Fitratning diqqatini tortgan yoki olim atay Bedil ijodining shu qirrasiga e`tibor qaratgan va urg’u bergandir?!

Fitrat Bedilning “Har gul ki didam, ob ilai xun chakidan ast, Yorab chi xor dar dili gulshan shikastaand?” (ya`ni, Har bir guli qon tomib turgan bir yaradan boshqa narsa emas, bu bog’chaning yuraginda qanday bir tikan chindirilgan ekan?) misralarini tahlil qilar ekan, Darveshdagi kabi bu baytni “isyonkorona ko`tarilgan oliy

ruhning nolasidan” ko`ra chuqurroq tushunadi, “har guli qon tomib turgan bir yaradan” iborat bo`lgan dunyoning sabablarini Bedil bilan barobar izlaydi va uni shoirning boshqa nazmidan topib, Bedil dunyoqarashining asoslarini tushuntiradi. “Insonlarning tabiatlarida yerlashib qolgan bir-birlariga ergashmoq haqiqatning qaroqchisidir. Rast-odatlarga bo`yinsunmoq esa tilaklarning to`sig`idir. Vaqtlarini taqlid orasida yo`qotmoqlari sababli bular bilan haqiqat orasinda shunday bir qalin devor tikilgandirkim, tanib yoqalarini yirtmoq bila uning tomoniga yo`l ocha olmaymiz... U bilan-da gapurma, bundan-da qoch! Mana shu vaqt haqiqatga erisharsan”. Demak, mana shundan dunyo nega shoir ko`ziga “har gulidan qon tomib turgan yara” bo`lib ko`ringanini anglay boramiz. Bedilning birgina baytidan chiqqan falsafa talqinida uning “Irfon” asaridagi etmish to`rtinchi tizimga borib taqaladi. Bu tizimlar talqinida Fitratning Bedilning Insonni va uning yaralishini, Olamni tushunishini sodda tahlillar orqali ocha boradi. Ya`niki, Bedil Insonning loydan yaratilib, uning chap qovurg`asidan Momo Havvo bino bo`lganligini rad qiladi. Uningcha, Inson nabototning taraqqiy etishi orqasida tadrijan paydo bo`lgan maxluqotdir. Bu falsafa zaminida Insonni ulug`ligini tasavvufona tushunish yotibdi.

Fitrat Qutlug` tilidan Bedilni tushuntirar ekan, Rustam, Mullo Qurbon kabilarning e`tirozlariga javob bera borishni ham unutmaydi. Bu bir tomondan, asarning syujet yaxlitligi va izchilligini saqlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, Fitratning ham o`z e`tirozchilariga javobi edi.

“Bedil”da Fitratning tebranish falsafasi ham aks etgan. Fitrat o`zining juda ko`p asarlarida tebranish – harakat hayotning, tiriklikning, mustaqillikning asosi, muhim omili ekanligini takror-takror aytadi. “Bedilga ko`ra “hayot bir tengiz”, biz uning tolg`alarimiz, - deb yozadi u, - tolg`aning tabiatidan harakatini

chiqarib bo`lmaydir. Hayot bor ekan, bizning-da harakatsiz tavakkal etib o`tirishimiz mumkin emasdir”. Az tiynati amvoj taraddud notavon bud, To xasti nafas fikr maholast tavakkul. Ul yerda yoyilgan ko`lkaning sirtinda yirik qalam bila yozilgan shu so`zni o`qig`onkim: “Ishsiz, harakatsiz yotg`onlar butun dunyoning oyog`lari ostida qolurlar”.

Fitratni maftun etgan yana bir narsa Bedilning e`tiqod haqidagi qarashi edi. Bedilning bu haqdagi nazariyasi shu ediki: “Keng bir dalaning etagi tikanlarga qayg`usiz tursa maslak egalari ham kishilarning so`zlariga qarshi shunday qayg`usiz turadilar:

Ahli Mashrab az zaboni ta`ni mardum forig`and,

Domani sahro chi g`amdorad zi zahmi xorxo”.

Yuqoridagi mulohazalardan anglashiladiki, Fitrat behudaga Bedilga murojaat qilmagan, uni keng tahlil qilgan, Umar Hayyom singari tarjimai holini yaratish bilan cheklanib qolgan emas. Ha, sharqning ikki davrda yashagan bu ikki faylasufi, donishmandi, olimi va gumanisti o`rtasida hammaslaklik, hamfikrlilik, dunyoni anglash borasidagi g`oyalarida hamohanglik bor edi. Shuning uchun ham Fitrat Bedilga 1923-yilda qayta murojaat qildi, uni kengroq sharhlashni vazifa deb bildi va bu sharhni ommabop qilib amalga oshirdi.

Moskvada nashr etilgan kitobchaga Fitratning dastlab yozgan “Bedil” maqolasi ham ilova qilingan. Bu “Bedil” sof ilmiy maqoladir. Unda Fitrat buyuk forsiyzabon shoirning qisqa tarjimai holini yaratadi. Ammo bu maqolada Fitrat “Umar Hayyom”dagi kabi masalaga chuqur kirib ketmaydi, turli manbalar, turli fikrlarni chog`ishtirib o`tirmaydi-da, Bedilning hayoti va ijodi xususida umumiy tasavvur hosil qilishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi.

Maqolada Bedilning dunyoqarashining shakllanishi ham ko`rsatib berilgan. Uningcha, Bedil dunyoqarashining shakllanishi va tadrijida

ijtimoiy muhit, ayni paytda amakisi Mirzo Qalandarning ta`sir ham bo`lgan.

Maqolada Bedil asarlari ro`yxati ham keltirilgan.

Maqolaning bir jihatini ta`kidlab ko`rsatmaslikning iloji yo`q. Fitrat juda qisqa hajmda Bedil uslubi haqida ham fikr bildiradi. Ammo ana shu qisqagina mulohazalar ham ulug' shoir uslubi xususida muayyan tasavvur hosil qila oladi. Chunki Fitrat Bedil ijodiga xos muhim nuqtalarni juda nozik ilg'ay bilgan. U yozadi: "Bedilning o`ziga maxsus markaziy bir uslubi bor. U fors adabiyotidagi g'azalchilik yo`lini kengaytdi. Yolg'uz ishqiy va axloqiy mavzularda emas, zamonig'a ko`ra eng muhim, eng ulug' fikrlarni ham g'azal yo`linda usta adabiy tashbehlar, majozlar bilan so`ylay oldi. Bedildan so`ngra bu uslubda yozmoq istaganlar ko`paydilar, biroq hech kim Bedil kabi yoza olmadi".

Fitrat, yuqorida ta`kidlaganidek, Yassaviy, Navoiy, Mashrab haqida ham maxsus maqolalar yozgan. Biroq biz ushbu ishda olimning muayyan adib ijodiga, hayotiga bag'ishlangan ikki tadqiqotini tahlil qilish bilan cheklanamiz. Buning boisi shundaki, birinchidan, bu ikki ishning janri ikki xil. Birinchisi sof ilmiy-akademik usulbda yozilgan, unda Fitrat turli manbalarga tayangan holda ish ko`rgan bo`lsa, "Bedil"ning uslubi butunlay boshqacha. "Bedil" ilmiy-ommabop asar. U yengil, ravon o`qiladi, tahlillar har bir kishiga tushunarli. Ikkinchi tomondan hikoya kabi syujetga ega bo`lib, qiziqarli shaklda yozilgan.

"Umar Hayyom"da olim shoirning mukammal tarjimai holini yaratishni maqsad qilgan va ana shu maqsaddan chekinmagan holda badiiy asarlari tahliliga keng o`rin bermagan bo`lsa, "Bedil"da nuqul shoir she`rlarining tahlili ustivorlik qiladi. Bizningcha, Fitrat Umar Hayyomning tarjimai holi, maslagi, urinishlarida o`z ruhiga yaqinlik sezmagani va adabiyot ixlosmandlarini uning hayoti va ijodi bilan tanishtirish ila cheklangan. Fitrat Bedil asarlarida o`z ruhini, o`z

g'oyalari, o'z intilishlarini, olamga va odamga bo'lgan o'z munosabati aksini ko'rgan. Dunyoni, hayotni anglashda Bedilda o'zi bilan bir uyg'unlik sezgan. Shu bois ham u 1920-yilgi obzor maqoladan keyin Bedil ijodiga qayta murojaat qilgan, uni kengroq sharhlashni, boshqalarni ham Bedil ijodi bilan mufassalroq tanishtirishni niyat qilgan. Balki manfur zamona uning boshida qilich qayramaganida, Bedilxonlik yana davom etarmidi...

Xulosa qilib aytganda, ushbu ikki maqola ham Fitratning muayyan shoir yoki adib ijodini yoritishni nazarda tutgan adabiy portretlar yaratish ustasi ekanligini, bunda u nuqul bitta usuldan foydalanmay rang-baranglikka intilganligini va olim sifatida o'zini to'la-to'kis namoyon qila olganligini yaqqol ko'rsata biladi.

IKKINCHI BOB

FITRAT VA MILLIY SHE`RIYAT TARAQQIYOTI

II.1. Abdurauf Fitrat – iste`dodli shoir

Abdurauf Fitrat talabalik yillaridayoq “bir devon bo`lishga arzirli” (Sadriddin Ayniy) she`rlar yozib ulgurgan. U dastlab o`z she`rlariga “Mijmar” (“mushk-anbar kabi turli xushbo`y narsalarni solib tutatiladigan idish (manqal)”) ³ taxallusini qo`yadi. Sadriddin Ayniyning yozishiga ko`ra: “Intiboh (ogohlik, g`aflatdan uyg`onish⁴) davridan oldin ham g`azal va qasidalar yozgan bo`lsa-da, ammo ularda bugungi she`rlaridagi sayqal, yonish va kuyish uchramas edi”⁵.

Fitrat jadid sifatida tanilgan, o`z asarlaridagi g`oyalar bilan mavjud tuzum yuragiga vahima solar edi. Shuning uchun Said Olimxon uning she`rlarini Buxoroda nashr etishga ruxsat bermaydi. Shuning uchun shoirning “Sayxa” (na`ra, da`vat, bongso`z) to`plami hijriy 1329, melodiy 1911-yilda Istanbulda talaba shoirning o`z hisobidan bosiladi. Fitratshunos olim Hamidulla Boltaboyevning qayd etishicha, bu to`plam hozir Istambul dorilfununi kutubxonasida saqlanadi, uning muqovasiga “Fitrat. Sayha. Milliy she`rlar” deb yozilgan bo`lib fors tilida arab alifbosida chop etilgan. Undan tanlab olingan o`ndan ortiq she`rlar “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914-yil iyul oyi sonlarida e`lon qilingan. To`plamda bu she`rlarning har bandidan keyin turk tilida uning mazmuni ham bayon etilgan.⁶

Misol:

Bozam ba she`r oftoda havoyi go`reston,

Par mizanad dilam, yag`zoyi go`reston.

³ Navoiy asarlari lug`ati. Tuzuvchilar: P.Shamsiyev va S.Ibrohimova. – T., G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1973 yil. – 348-bet.

⁴ O`sha manba, 276-bet.

⁵ Iqtibos ushbu manbadan olindi: Boltaboev H. Fitrat va jadidchilik. – T., A.Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007 yil. – 71-b.

⁶ Q.: yuqoridagi manba, o`sha sahifa.

Mazmuni: Boshimga yig'lash havasi tushdi,

Qanot urdi yuragim yig'i osmonida.

Turk olimi Mehmed Sarayning ta'biriga ko'ra, "Istanbulga kelib, turkchi millatparvar bo'lgan Fitrat" forsiy she'rlarini Turkiya aholisi ham tushunishi uchun mana shunday yo'l tanlagan.

Zamondoshlarining yozishiga qaraganda, vatanparvarlik she'rlari to'plami bo'lgan "Sayxa"ni o'qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, balki rus hukumati ham ta'qib qila boshladi. Turkiston general gubernatori gazetaning bu sonlarini man' qilish bilan qanoatlanmay, tez orada uni yopib qo'ygan. Sabab shu ediki, "bu she'rlarda Vatan mustaqilligi g'oyasi birinchi marta yorqin shaklda ifodalab berildi"⁷.

Fitratning she'rlari taqiqlab qo'yilganiga qaramay Qrim va Qozon turklari orasida, G'arbiy Turkiston, Eron va Germaniya kabi mamlakatlarda keng tarqaldi, jamiyatning hamma tabaqalari orasida qiziqish bilan o'qildi.

Fitratning she'riy ijodi haqida gapirganda, uning faqat "Sayxa" to'plami haqida gapirish biryoqlamalik bo'ladi. Chunki Fitrat o'zbek tilida ham she'rlar yozgan. Uning o'zbek tilidagi ko'pgina she'rlari 20-yillarda vaqtli matubot sahifalarida, "Inqilob", "Qizil qalam" to'plamlarida chop etilgan. 1922-yilda nashr qilingan "O'zbek yosh shoirlari" majmuasidan esa shoirning 10 dan ortiq she'riy asari joy olgan. Bundan tashqari, "Hind ixtilollchilari"ning Berlin nusxasida (1923-yil) Fitratning "bosilgan va bosilmoqda bo'lgan" asarlarining ro'yxati berilgan. Unda shoirning e'lon qilinmagan turkcha she'rlar kitobi "Uchqun" haqida ma'lumot beriladi. "Abulfayzxon" fojiasining Moskva nashrida shoir Fitratning "Uchqun" she'rlar kitobi sotuvga chiqqani xabari keltiriladi. Hatto kitobchanning narxi ham ko'rsatilgan. Biroq bu to'plam, H.Boltaboyevning qaydiga ko'ra, na Moskva, na

⁷ Xo'jayev F. Buxorodagi inqilob va O'rta Osiyoning milliy chegaralanishiga doir // Tanlangan asarlar. Uch tomlik. 1-t. – T., Fan, 1978. – 98-99-b.

Sankt-Peterburg kutubxonalarida, na xorijsda, na shoirning o`z yurtida saqlanayotgan asarlari orasidan bu kungacha topilmagan. ehtimol, bu she`riy majmua biror kitobxonning qo`lida, shaxsiy kutubxonalarda mavjud bo`lishi va vaqti-soati bilan topilishi mumkin.

Fitrat she`riyati, shoirning o`z tili bilan aytganda “rubobiy she`rlari” nafis va buyuk Sharq she`riyatining bor go`zalliklaridan to`yingan, uni o`ziga xos tarzda ichdan yangilashga kamarbasta she`rlardan tarkib topgan. Bu haqda Fitratning zamondoshi va vatandoshi Sadridin Ayniy shunday yozadi: “Fitratning she`riyati haqida yana shuni aytish kerak: shoir o`zbek adiblari ichida birinchilardan bo`lib folklor shakllarida she`rlar yozadi. Bu ming yilcha davr ichida aruzdan boshqa shaklni bilmagan yozma she`riyatimiz sohasida novatorlik edi”⁸.

Fitrat adabiyotshunos olim sifatida Sharq she`riyatining jozib xislatlarini aksariyat ilmiy asarlarida tahlil etgan bo`lsa, shoir sifatida she`rlarida o`sha jozibaning o`z zamonidagi nozik tovlanishlarini ko`rsata bildi.

20-yillarning ayovsiz tanqidchilaridan biri Abdurahmon Sa`diy “Behbudiy va uning tegrasiga yig`ilgan yozg`uchilar” maqolasida shoir Fitratning o`zbek she`riyati rivojiga qo`shgan ulushi haqida gapirib, “hozirgi o`zbek she`riyatida Fitratning xizmati uning tili va uslubida ko`rinadi, u she`riyatda arab va fors so`zlariga yo`lni bekitdi, o`zbek she`r tuzilishining rivojlanish yo`llarini belgilay borib, ko`pgina yosh shoirlarni o`zining uslubi va tili bilan ergashtira oldi, atrofiga yosh shoirlarni to`plab, ularga til va uslub yog`idan yo`l ko`rsatmoqdadir” deb yozadi⁹.

Temur Xo`ja o`g`li Izmirda chop etilgan “O`zbeklar va o`zbek adabiyoti” deb nomlangan kuzatishlarida: “Hijo vaznli va

⁸ Ayniy S. Ta`rixi inqilobi Buxoro. – Dushanbe, Adib, 1987. – Sah. 47.

⁹ Iqibos ushbu manbadan olindi: Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – 73-b.

to`rtliklardan qurilmish chog`dosh o`zbek she`rining boshlanmasinda rus adabiyotining ta`siri juda kamdir.... Chog`dosh o`zbek she`rining vujudga kelishida Abdurauf Fitrat 1918-yilda tuzgan “Chig`atoy gurungi” nomli yozuvchilar uyushmasining foydasi katta bo`ldi” deb yozgan.

Fitratning turk tili va adabiyoti ravnaqidagi xizmatini Ahmad Zaki Validiy To`g`on, Edvard Ollvort, Boymirza Hayit, Mehmed Saray, Yusuf Avji kabi xorijlik olimlar ham o`z ilmiy ishlarida xolisona ko`rsatib o`tganlar. Bu manbalarda Fitrat dramaturg va olim, nosir va publitsist sifatida tilga olinishi barobarida, unga doim “shoir” sifatlashi qo`shib aytilganki, bu shunchaki shaxsiy munosabatning belgisi bo`lmay, uning ijodidagi shoirlik iste`dodiga alohida hurmat nazari bilan qaraganliklarining alomati hamdir.

Xo`sh, shunchalik zarif, shunchalik pafosi baland she`rlar yozgan Fitrat she`r va shoirlikni qanday tushunar edi? Buning uchun uning aynan shu mavzuda bitilgan maqolasini ko`zdan kechirishi lozim bo`ladi.

Fitrat iste`dodli shoir bo`lish bilan birga she`riyat nazariyasining nuqtabin tadqiqotchisi ham edi. U 1919-yilda “She`r va shoirliq” maqolasini yozadi. Bu maqola yozilgan paytda hali chuqur nazariy umumlashmalar chiqarilgan ilmiy asarlar yaratilmagan, yangi tizim maktablari uchun qo`llanma xarakteridagi sodda darslik, qo`llanmalar yaratilayotgan edi. keyinroq, 20-yillarning boshlarida Cho`lponning “Sho`rolar hukumati va sanoyi`i nafisa”, Abdurahmon Sa`diyning “Go`zal san`at dunyosida” maqolalari, Vadud Mahmudning “Bugungi she`rlarimiz va san`atkorlarimiz” turkum maqolalari vujudga keldi. Lekin bular Fitrat maqolasidan ancha keyin yaratilgan.

Maqola Fitrat tomonidan 1918-yilda asos solingan “Chig`atoy gurungi” tashkiloti talab-ehtiyojlari zaminida yozilgan bo`lib, bu adabiy-madaniy jamiyat “Chig`atoy hududi” deb nom olgan geografik

birlikning tub yer egalari sanalgan Markaziy Osiyodagi turkiy xalqlarning madaniyati, adabiyoti, tarixi, til va imlo masalalarini atroflicha o`rganishga kirishgan dastlabki ilmiy jamiyat edi.

Fitrat o`z maqolasida she`r nazariyasidan bahs yuritishdan avval turkiy xalqlarda she`rning paydo bo`lishi va ular she`r deb qanday san`atni tushunganlaridan so`z ochadi: “she`r va shoirliq degan so`zlar bizda yangigina narsa emas. Turk ulusi o`z borlig`ini ochung`a ko`rsatkali she`r va shoirliqni bilibgina kelganlar”. Dunyodagi eng ko`hna xalqlardan sanalgan turkiylarning arab istilosiga qadar she`rsizligidan gapirmoq – uni bir madaniyatsiz, o`tmishi yo`q xalq deyish bilan teng edi. Shuning uchun Fitrat dalillar asosida: “Madaniy bir ulusning she`rsizlig`in so`ylamak esa, gupurub turgan bir kishining jonsizlig`ina ishonmak kabi kulunchdur” deb oddiy haqiqatni bayon etish bilan “turklar musulmonliqdan burun ham buyuk madaniy dong`li bir hayot kechirganlar”, “turklarning musulmonliqdan burun ham o`z she`rlari, shoirlari, adabiyotlari bor edi” degan xulosani aytgandan keyingina she`rga ta`rif beradi. Ammo oldin she`rga berilgan boshqa ta`riflarni “taftish” qilib, she`rga vazn, qofiya, badiiy san`atlar singari shakliy elementlar orqali berilgan ta`riflarni tanqid qiladi. U shunday yozadi: “7-8 so`zni belgili bir vaznda tizib, ketinda belgili bir so`zni qofiya qo`ymoq bilan she`r orasinda yerdan ko`kkacha ayirma bordir”. Shundan keyin Fitrat o`z-o`ziga she`r nadur? – degan savolni qo`yadi va javob beradi: “she`rda kishilarning qonini qaynatg`uvchi, singirlarini o`ynatg`uchi, miyasini titratguchi, sezgusini qo`zg`atguchi bir kuch, ma`naviy bir kuch bor. Shunday bir kuchi bo`lmagan so`z “vazn” va “qofiya”si bo`lsun, she`r bo`la olmaydur”. Ko`rinadiki, Fitrat she`rda shaklni emas, ma`no-mazmunni, pafosni, fikrni birinchi o`ringa qo`yadi. Vazn va qofiya esa mana shu ulkan mazmunning, mana shoirona o`tning tashqi libosiginadir, xolos. Bu ta`rif ma`noni birinchi o`ringa qo`ygan Alisher Navoiy ta`rifiga mos keladi.

Fitrat o'z maqolasida she'rni tug'ilish asoslariga ham diqqat qiladi. Uning fikriga ko'ra, she'r uyda o'tirib to'qib chiqarilmaydi, bil'aks, u tashqi ta'sir, real hayotning shoir qalbidagi aksi-sadolaridan tug'iladi. "Shoir tegrasidagi narsa va hodisalardan olding'i sezgilarni hunarlicha (san'atkorona) so'zlar bilan boshqalarga o'tkarmoqchi bo'ladir, - deydi davom etib Fitrat. - Kishining yuragi qancha "sezag'on" esa, shuncha yaxshi shoir bo'lur. Shoirliq uchun bir sezgi va u sezgini hunarlicha so'zlar bilan boshqalarg'a o'tkazguchi bir kuch kerakdir". Demak, Fitrat tashqi hayot ta'sirida tug'ilgan his-tuyg'ularni boshqalarning yuragiga o'tkazmak uchun she'rga murojaat qiladiki, bunda u "hunarlicha ishlangan", ya'ni san'atkorona topilgan va sayqallanib timsolga aylantirilgan so'zlar bilan ish ko'radi. Bu ko'chish jarayoni Fitratning ayni shu yillari yozilgan "shoir" she'rida shunday ifodalangandi: "shoir tabiatdan sirli, teran ma'nolarni chin yo'llar bilan izlar - topar, o'zi uchun saqlamas. Ularni yoz gulining yaprog'idan to'kulg'on so'zlar ilan bizga o'rab topshirar". Mana shu chin yo'llar bilan topilgan timsollarni bizga o'rab topshirish jarayonida maqolada tilga olingan vazn va qofiya asosiy maqsad emas, balki she'r qalbidagi ma'naviy qudratni yetkazuvchi vositaga aylanadi. She'rdan maqsad "vaznu qofiya kabi she'riy birliklar emas, balki she'r qalbidagi haqiqatning she'rxon qalbiga ko'chishidir".

Fitrat, ayni paytda, "she'r sezgi to'lqunlarini so'z orqali tashqariga to'kmakdir" qabilidagi ta'rif bilan to'xtalish noto'g'ri xulosaga olib kelishi mumkinligini uqtirishni ham unutmaydi: "She'rning bir san'at bo'lganligini qabul etkandan keyin bu qarashning ahamiyati qolmas, ayniqsa, biz kabi chin she'r va san'at ochunidan uzoqlashganlar. esimizga kelgan har bir so'zni yuragimizdagi sezgu to'lqinlari gumon qilib tashqarig'a ota bersaq, Tangri ko'rsatmasun, o'quvchilarimiz qocharg'a yo'l topmay qolarlar!" Demak, yurakdagi har qanday hissiyot ham she'r deb

tashqariga otilavermasligi kerak ekan. Shoir ushbu ko`chirish jarayonida “musavvirona ko`rish, mutribona uqish, orifona idrok etish” qobiliyatlarini o`zida mujassam qilishi lozimligi bilinadi. Xuddi shu ma`noda Fitrat bizga bir necha marta uqtirgan “she`r qalbidagi ma`naviy kuch” chuqur his etilgan, san`atkorona ishlatilgan so`zlar vositasidagina, chin yo`llar bilan ifodalangandagina she`rga aylanishi mumkin, degan ta`rif kelib chiqadi.

She`r haqidagi haqiqatni anglab yetgandan keyingiga Fitrat uning ifoda usullari – shakl, vazn, qofiya kabi istilohlarni tushuntirishga kirishadi: “She`r ikki turlidir: manzum she`rlar, mansur she`rlar. T`izim so`zlar bilan she`r so`ylamak mumkin bo`lgani kabi, sochim so`zlar bilan ham she`r so`ylamak mumkin bo`lar. Sochim she`rlar (mansur she`rlar) uchun “vazn va qofiya”ning tegishligi bo`lmas ham so`zlarning hunarlicha (san`atkorona) bo`lishi tegishdir (ya`ni daxldordir)”.

Fitrat o`z maqolasida mansur she`rlarga alohida e`tibor beradi. Zero, mansuralar aynan Fitrat yashagan XX asr boshlarida o`zbek she`riyatida joriylana boshlagan edi. 1914-yilda Hamza Hakimzoda Niyoziy birinchi marta “she`ri mansur” izohi ostida bunday janrning ilk namunasini yaratgan edi. Fitratning o`zi «Yurt qayg`usi” nomi ostida uchta nasriy she`r yozdi (1917-yil). U zukko adabiyotshunos sifatida milliy she`riyatda kechayotgan yangiliklarni nozik ilg`adi va uni nazariy jihatdan ko`rsatib o`tdi. U yozadi: “Yuragimizdagi sezgilarni tasvir etmakchi bo`lsak, qofiyasiz, vaznsiz bir she`r (sochim she`r) yozamiz. She`rimizni bezamakchi esak, vaznli, qofiyali she`r (tizim she`r) yozarmiz”. Fitratning mana shunday izohiga asoslanib, professor Hamidulla Boltaboyev shu jumlada Fitrat “vaznsiz bir she`r deb mansur she`rlarni nazarda tutadi. Fitrat talqinidagi “vaznsiz she`r” iborasi bizning quloqlarimizga “erkin”, “sarbast”, “verlibr” kabi atamalar orqali o`rnashib qolgan she`riy nutqning ayni o`zidir. – deb

yozadilar. 30-yillar she`riyatida bu turli she`rlar “sochma” nomi bilan mashhur bo`lgani adabiyotimiz tarixidan boxabar kitobxonlarga ma`lumdir. “Mansur she`r” istilohi esa 70-yillar she`riyatiga nisbatan adabiyotshunos Ibrohim G`afurov tomonidan qayta ishlatildiki, dastlab Fitrat qo`llagan bu istiloh hozirgi she`riyatda ham o`z hodisalariga munosib qo`llanilg`usidir”¹⁰.

Bu yerda aytib o`tish lozimki, adabiyotshunoslikda sərbast (erkin she`r, verlibr) va mansur she`r bir-biridan farqlanadi. Ma`lumki, nasr va nazm badiiy nutqning ikki ko`rinishi, shaklidir. Nazmning bosh belgisi, rus adabiyotshunosi Yu.N.Tinyanov ko`rsatib berganidek, misralarga ajralishidir. Sərbast – bu nazm namunasi. Sərbastda misralardagi hijolar soni noteng bo`ladi, shuning uchun sərbast she`rni o`qiganda nasrday idrok etiladi. Ammo bunday notekis ritm uni sochma deyishga asos bo`lolmaydi. Mansur she`r esa nasriy nutq ko`rinishidir. Mansur she`r misralarga bo`linmaydi, u sochma shaklda yoziladi. Mana shunga ko`ra aytish mumkinki, Fitrat “vaznsiz bir she`r” deganda aynan sochma nutq shaklidagi lirikani nazarda tutgan, aslo sərbast she`rni emas. Chunki sərbast – o`z vazniga ega.

Fitrat bu maqolasida turk she`riyatidagi arab-fors she`riyatidan yuqtirilgan taqlidgo`ylikka qarshi chiqadi. “Biz musulmonliqdan so`ng adabiyot yo`llarinda iyaruvchilikdan sira qutila olmag`animiz, adabiyot yo`llarinda eng katta hunarimiz ko`prak eronlilarga, undan keyin arablarga iyarmak bo`lgan”, - deb yozadi adabiyotshunos katta taassuf bilan. Vazn va qofiyaga, shaklbozlikka intilishni ham mana shu taqlidning afsusli natijasi deb biladi u. Ammo bu afsusni aslo boshqa millatlarni kamsitish, bo`lak adabiyotlarni yerga urish deb tushunmaslik kerak. Chunki Fitrat har bir milliy adabiyot shu elning ruhiga, shu tilning xususiyatiga mos bo`lishi tarafdori. Jumladan, u

¹⁰ Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – 89-90-b.

fors tiliga, undagi musiqiylikka katta baho beradi: “Forsiycha dunyoning eng o`ynoqi va nozli so`zlarindandur. “Vazn” chanbarinda teatru sahnasidagi qizlar kabi o`ynab turadir. Turk so`zi esa og`ir, viqorli, gavdalidir... Eron vaznida turkcha she`r yozg`anlar ikki zararli ishka majbur qolarlar. Birinchisi, she`r orasinda ko`prak arabcha so`zlar kirgazilur. Ikkinchisi, “vazn” rioyasi bilan turkcha so`zlarning gavdasini buzarlur. Eron vaznida she`r aytqon butun turk shoirlari shul ikki kasalga tutilganlar, birortasi ham qutila olmag`an”. Turkiy shoirlarning turkiy til uchun g`oyatda maqbul vazn bo`lgan barmoqda yozish o`rniga, an`anaga yopishib olib o`zini mana shunday mashaqqatga duchor etganlarini qattiq tanqid etgan Fitrat, baribir, Navoiy dahosining ulug`ligi oldida bosh egadi. Navoiy turkiy tilda arab-eron aruzini katta mahorat bilan, yuqorida ko`rsatib o`tilgan “virus”ni yuqtirmasdan tasarruf eta bilganini alohida ta`kidlashga o`zida bir majburiyat sezadi: “Turkcha so`zlarning gavdasini buzmay olmoqg`a eng ko`p tirishkan shoir Navoiydir. Navoiyning she`rlarinda buzulg`an so`z oz ko`rinadir. Demak, Navoiy hazratlari bu ishning sovuqlig`ini anglamish, biroq o`zini butun qutqara olmamishdir”.

Fitratning she`r va shoirlik haqidagi mushohadalari shu birgina maqola bilan to`xtab qolmaydi. U o`zining keyingi tadqiqot va qo`llanmalarida, “Turk she`rining milliy vaznimiz bo`lg`on barmoq tizimi” (“Adabiyot qoidalari”) va arab-eron aruzining turk she`rida qo`llanilish sirlari (“Aruz haqida”) xususida yanada oydin, chuqur va izchil fikr yuritgan. XX asrning 10-yillari oxirida e`lon qilingan ushbu mo``jazgina maqola orqali she`riyat o`zining umuminsoniy hissiy sifatlari va o`ziga xos inja sirlari bilan birga milliy vazn “chanbarin”dagina takomil topishi mumkinligini aytib ulgurgan. Shoir o`z milliy hissiyoti, tili, uslubi kabi unsurlarni imkon darajasida o`z millatining dilini ko`rsatish uchun, u xalq iste`molida bo`lgan so`zlarni o`z holicha, ularning “gavdasini buzmay” she`rga olib kirish

shoirning ma`naviy bir yumushi ekanini juda ishonchli dalil va manbalar orqali isbotlab bergan. Shuningdek, shoir xalqi o`z milliy madaniyati va zamonidan ozuqlanib, millatning didiga, diliga va tiliga mos asarlar bitgandagina millatning otasiga aylanishi mumkin ekanini bir maqola imkoniyatida tushuntira olganki, bu nazariy aqidalar olimning Xoja Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bobur va Mashrab kabi mumtoz adabiyotimiz daholari haqidagi maqolalarida izchil davom etadi.

Fitrat birgina “She`r va shoirliq” nomli ixcham maqolasi orqali she`r nazariyasini ham uning amaliy jihatlarini yaxshi biluvchi nuqtadon olim ekani ko`rinadi. Ayni paytda Fitrat o`zi nazariy jihatdan asoslab bergan holatlarni o`z lirik ijodida muvaffaqiyat bilan qo`llay oldi.

II.2. Milliy ong va milliy she`riyat

Ma`lumki, jadid adabiyotining eng muhim mavzularidan biri – vatanparvarlik mavzuidir. Bu – keng xalq manfaatlariga qaratilgan tom ma`nodagi vatanparvarlikdir. Davr ijodkorlarining bunday hayotbaxsh tuyg`ulari xarobaga aylangan Turkistonning iqtisodiy taraqqiyotini, xalqning ozod, teng huquqli bo`lishini, istiqlol kunlariga yetishini orzu qilgan tuyg`u – Vatanparvarlikdir. Abdurauf Fitrat ham o`z ijodini yoniq vatanparvarlik tuyg`ularini isyonkorona kuylashdan boshladi.

Fitratning lirik ijodi “Sayxa” bilan boshlangani yuqorida aytib o`tildi. “Sayxa”ning shoirning o`z Vatanida emas, balki xorijda dunyo yuzini ko`rishi, shubhasiz, undagi o`tkir isyonkorlik ruhi bilan aloqador. Undagi deyarli jami she`rlar vatanparvarlik mavzuida ekanligi, ularda shonli o`tmishga ega bo`lgan bir yurtning tanazzulidan bahs etilganligi adabiyotshunoslar tomonidan qayd etilgan. Undagi barcha she`rlar Vatan haqida edi. Vatan haqida esa

osoyishta so`zlab bo`lmasdi. Uning dardi nihoyasiz, jarohatlari halokatli edi. Shoir uning “holi xarobligidan”, “panjai g’am”dan piyrahani – libosi chokligidan dod soldi. Unga mehru muhabbatini hayqirib aytdi. U bilan iftixor etdi. Uni har narsadan muqaddas tutdi.

U uchun baxt va najot axtardi:

Binmo sahari azmi tavofi vatani man,

Oh-oh, chi vatan, sajdagohu jonu tani man.

Ham mohi manu osoyishi, izzu sharafi man,

Ham Ka`bai man, qiblai man, ham chamani man.

“Sayxa”ga kirgan she`rlardan biri- “Mihani mo” mana shunday boshlanar edi.

Buxorolik yana bir vatanparvar shoir Isroil Subhoniyl har bir satridan ohu fig'on, o`tli dard silqib turgan ushbu she`rni o`zbek tiliga aruz vaznida tarjima etib, 1992-yilda “Navqiron Buxoro” jurnalida nashr ettirdi:

Tongla tavof aylagali chiq, Vatanimdur,

Oh-oh, ne Vatan, sajdagohu jonu tanimdir.

Izzat, sharafim, tinchimu arshimda to`lin oy,

Ham Qiblamu ham Ka`bamu va ham chamanimdur.

Shoir ana shunday qiblam, Ka`bam, sajdagohim deb yuksaklarga ko`targan, ilohiy tus bergan, ta`riflagan, sevgan ona-Vatanini Rossiyaning mustamlakachilik siyosati, istibdodi, zulmi xarob qilayotganligidan chuqur iztirobga tushadi, qalbi larzaga keladi. Bu hol ijodkorni ona Vatan himoyasi uchun kurashga chorlaydi, qahramonlikka undaydi.

Albatta, xalqni o`z ona vatanini sevishga, e`zozlashga, uni qaramlikdan, istibdoddan ozod qilishga undagan, da`vat qilgan asarlar Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga zid edi. Shuning uchun ham rus hukumati Fitratning bu she`rini ham va shu turkum asarlarning barchasini ham ta`qib qildi. Jadidlarning ona Vatan – shonli

Turkistonni ulug'lashlari, kuylashlari o'z o'rnida Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga, istibdodga qarshi kurashlarning bir ko'rinishi, badiiy ifodasi edi. Rossiyaning Turkistondagi ma'murlari jadid shoirlarining Vatan ishq, xalq dardi bilan yonib yaratgan asarlarini chop etilishiga, xalq orasida tarqalishiga qattiq qarshilik ko'rsatdilar, mualliflarini ta'qib etdilar.

Abdurauf Fitratning "Mihani mo" she'rini o'z sahifalarida chop etganligi uchun "Sadoi Turkiston" gazetasining 1914-yil iyun sonlari musodara qilindi, muharrirlari Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev va Muzaffarzodalar sudga berilib, katta jarima to'lashga majbur qilindi.

"Sayxa"ning nusxasi O'zbekistonda mavjud emasligi tufayli bu to'plamga kirgan boshqa she'rlarni tahlil qilish imkoniyati cheklanadi. Ammo keyingi davrlarda bu mavzu Fitrat ijodida yanayam o'tkirlashib bordi.

Abdurauf Fitrat "Hurriyat" gazetasi sahifalarida e'lon qilgan uch sochmasi va bir she'rini «Yurt qayg'usi» deb atadi. U mazkur turkumni "Vatan hasarati", "Xalq dardi" kabi balandparvoz, jarangdor nomlashdan o'zini tiydi.

Fitrat "Hurriyat" gazetasining 27-sonidan boshlab (1917-yil 28-iyul) muharrirlik qila boshlaydi. Xuddi shu kuni Petrograd da tarixga "iyul voqelari" nomi bilan kirgan sharmandali qo'zg'alishlar barham topib, Lenin boshliq bolsheviklar ikki hokimiyatchilik muvozanatini zo'ravonlarcha buzib tashlab, qurolli to'ntarish bilan hokimiyatni egallashni niyat qilgan edilar. Gazetaning mana shu 27-sonida «Yurt qayg'usi» bosilib chiqdi. She'rda Fitrat shunday yozadi: "Ey, ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi? Nechuk kunlarga qolding? Dunyoni "ur-ho"lari bilan titratkan yo'lbars yurakli bolalaring qani? Nechun tovushlari chiqmaydir? yer yuzining bir necha polvonlari bo'lgan botir turklaring qani? Nechun chekindilar? Nechun ketdilar? Kurash maydonlarin o'zgalarga nechun qo'ydilar? Nechun... nechun..."

nechun?.. Gapur menga, ey ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi?"¹¹

Turkistonning achinarli ahvolini, turkiy xalqning mazlumligi, taraqqiyotdan orqada qolganligini bundan oldin "Hind sayyohi", "Rohbari najot" kabi keng ko'lamli adabiy-publitsistik asarlarida epik planda ko'rsatib bergan Fitrat o'z nasriy she'rida mana shunday yoniq pafos bilan millat va Vatan inqirozidan so'z ochadi. Uning shonli o'tmishini eslatish orqali orini qo'zg'amoqchi, munavvar kechmishiga munosib bo'lishga chorlamakchi bo'ladi. U "Bir o'zbek yigitining tilidan" nasriy she'rida ("Hurriyat", 1917-yil, 18-avgust) Vatan bosh-oyog'i yalang, tanasida adadsiz qamchi izlari, ko'ksidagi yaralaridan qon tomayotgan holsiz, darmonsiz ayol timsolida ifodalandi. Bu timsol o'zbek yigitini tushida ham, o'ngida ham ta'qib etadi. O'zbek yigiti "g'amli ona – muqaddas Turon" xayoli bilan so'zlashuvga kirishadi. Undan ayrilmoqni o'zi uchun o'lim, uning uchun o'lmoqni esa tiriklik hisoblaydi, uni qutqarmoqqa ont ichadi.

"Qarayman: kimsasizlik yukindan orig'lagan tanda zolimona urulg'an qamchilarning yarasi bor. Ko'raman: johilona qiling'an emlarda nosulg'a qaytg'an yaralarindan qonlar oqib turadir!", - deb yozadi otashnafas shoir. Asar yangi shaklda – sochim she'r shaklida yozilgan bo'lsa-da, pafosi, obrazlilik, poetik sintaksisining mukammalligi bilan yuksak sharq she'riyatini esga soladi. "Qarayman", "ko'raman"; "zolimona urulg'an qamchilar" va "johilona qiling'an em(davo)lar" shaklidagi sintaktik qolip fol'klordagi sintaktik parallelizmlarga, qisman saj'ga asoslangan. "Nosul" – tuzalmaydigan yara obrazi ham shoirning g'oyaviy maqsadini haddi a'losida ko'rsata olgan. Bundan tashqari shoir ochiq istioralardan ham mahorat bilan foydalangan: "zolimona urulg'an qamchilar" va "johilona qiling'an em(davo)lar". Bulardan birinchisi ko'hna Osiyoni

¹¹ Fitrat A. Yurt qayg'usi // Fan va turmush. – 1990 yil, 9-son. – 7-bet.

asrlar mobaynida asoratda qoldirgan notenglikka, zo`ravonlikka asoslangan nosoz ijtimoiy tuzumni; ikkinchisi esa xalqni jaholatda saqlab kelgan xurofotni, jaholatni anglatadi.

Shoir “Bosh-ayog`lari yalang`och, tirsaklarigacha qop-qora loyqag`a botg`an, baqirurg`a tovushi, qutulurg`a kuchi qolmag`an” Vatan xayolini mungli xotin qiyofasida tasavvur etib “Zolimlar seni kimsasizmi ko`rdilar? Yo`q, sen kimsasiz emassan. Mana men butun borlig`im bilan senga ko`mak qilurg`a hozir. Mana men chin ko`ngil bilan sening yo`lingda o`lurg`a rozi... Ustimga insonlar emas, shaytonlar qo`shini kelsa, Oyog`imga zanjirlar emas, jahannam ilonlari sorilsa, yana sen sari choparman. Dunyoning butun balolari boshimga to`kulsa, Zulm cho`lining temir tikonlari ko`zlarimga kirsas, yanan seni qutqarorman.

Men sening uchun tirildim, sening uchun yasharman, sening uchun o`larman.

O`lim sening o`limingni istaganlarga, nafrat seni ko`mgani kelganlarga”, deya kurashga bel bog`laganda, shubhasiz, Vatan ozodligi yo`lida jonini berurg`a tayyor bir fidoyining ehtirosli niyatini ifoda etgan edi. Vatanni ona deb anglash, ona Vatan degan jumlaning o`zi, balki, Vatanni mungli ayol qiyofasida tasavvur etgan jonso`z, jasoratli shoirimiz Fitratdan boshlangandir? Ne ajab...

Shoir mamlakat uchun g`oyat muhim va mashaqqatli bo`lgan kunlarda tarixdan, ota-bobolar ruhidan najot izlaydi. U o`zining nasriy she`rlaridan birini monolog shaklida yozib, unda shon-sharafli Temur qabriga madad so`rab boradi, turkiylarning buyuk sarkardasi, markazlashgan davlatning ulug` tashkilotchisidan imdod so`raydi: “Ezilgan boshim, qisilgan vijdonim, kuygan qonim, o`rtangan jonim uchun bu sag`anangdan davo izlab keldim, hoqonim! Yuz yillardan beri jafo ko`rib, g`am chekib kelgan qonli ko`z yoshlarim etaklaringga to`karga keldim. Qorong`ular ichra yog`dusiz qolgan o`zbek ko`zlari

uchun tuprog'ingdan surma olgani keldim. Nomusini bad kishilarning oyog'lari ostinda ko'rib, turklik qoni qaynag'ay, musulmonliq hamiyati toshgay, tamug' (do`zax) olovlari kabi sachragay. Lekin o`z kuchsizligini anglab, qaytib o`tirgan va qon yig'lagan turklik holini arz etarga keldim, hoqonim!” (“Hurriyat”, 47-son). Atoqli olim, professor Naim Karimov o`zlarining “Fitratning shaytonga isyoni” nomli maqolalarida Fitratning topilmagan “Temur sag'anasi” nomli dramatik asarini topishda, tiklashda, hech bo'lmasa g'oyaviy-badiiy tendensiyasini aniqlashda «Yurt qayg'usi” degan umumiy nom ostida chop qilingan uch qismdan iborat mana shu nasriy she`rlar zamin, manba vazifasini o`tashi mumkinligini qayd qiladir¹². Bu qarashni Hamid Olimjonning 1936-yilda yozilgan “Fitratning adabiy ijodi haqida” maqolasi ham quvvatlaydi. Unda shunday fikr bor: “Muallif Temur sag'anasiga borib, o`z fojiasini aytib yig'laydi: “Hoqonim, ezilib, talangan, talanib yiqilgan, yiqilib yaralang'an turk elining bir bolasi sendan ko`mak istarga keldi. Bog'lari buzilg'an, gullari so'lg'an, bulbullari uchirilg'an Turonning bir qorovuli senga arz etarga keldi”. Fitrat dramasidan olingan parcha ham pafosi, sintaktik tuzilish, badiiy-tasviriy vositalari bilan she`rga o`xshab ketadi. Bu esa «Yurt qayg'usi” ma`lum dramaning yaratilishga asos bo'lgan bo'lishi mumkin degan taxminni quvvatlantiradi.

Fitratning vatanparvarlik mavzuidagi chuqur mazmunli, yuksak badiiyatli she`rlaridan yana biri “Sharq”dir. Unda o`lkaning yaxlit, umumlashma obrazi chiziladi. Sharq, shoir ta`rficha, dunyoning eng go`zal bog'chasidir. Uni go`zallikda hech bir joy bilan qiyos etib bo'lmaydi. Jannatlar uning atrofida. Uning gullari jon suvidan etilgan. Saf tortgan ko`m-ko`k yog'ochlar mumtozlik haqqi uchun tangriga topinishga ko`kka intiladilar. O`ngdan, so`ldan. Har yondan ko`rkam haybatli tog'lar qurshagan. Yo`q, ular tog'lar emas, haq yo`lida

¹² Q.: Karimov N. Fitratning shaytonga isyoni // O`zAS. – 1993 yil, 20 avgust.

kurashga yasov tortgan alp askarlardir. Biror yovvoyi hayvon yirtqich tishini, tirnog'ini suqib qolmasin deya. Uni Tangrining o'zi yorlaqab, tegrasidan aylangan suv, muz, tog' qo'rg'oni bilan muhofaza etadi. Ammo she'r faqat vatan ta'rifidan iborat emas. Shoir mana shu go'zal manzarani she'rning keyingi qismida ifoda etilajak tanazzul manzaralariga kuchli qarshilantiradi:

Biroq bu kun esizlarkim, bu o'lka
Har tomondan talanmishdir yo'lsizcha.
Madaniyat degan G'arbli olbosti
Boqing, buning ko'krigidan o'q bosdi.

Mana, go'yo shiddatli bir dovul kelganu, bundagi go'zallikni barbod qilgan. Bu dovulning ismi – madaniyat. Nega “madaniyat”? Madaniyat hayotning mazmuni bo'lishga qaratilgan emasmi? Gap nomda emas, mohiyatda. 1917-yil Oktyabr inqilobi xalq uchun, xalqning nomidan amalga oshirilgan edi. Oqibati-chi? Insondagi insoniylik barbod bo'lib, yovvoyilik, yovuzlik junbushga keldi. Odamzod bir-birini yo'q qilishga tushdi. Hayvondan xor bo'ldi. Bu inson emas, iblis (olbosti - alvasti) a'molidir. O'lkaning ko'ksiga o'q qadagan o'shadir.

Shoirning fikrlash tarzi – shunday.

Manzara asta-sekin oydinlashib boradi. Yongan qishloqlar, omonsiz talanganlar, qon to'la ariqlar o'rnini tafsilotlar oladi:

To'rt-besh yashar bolaning boshini
Boqing: keskin qilich bilan kesmishlar.
Yig'lab turg'on onasining bo'yniga
Bir ip bilan osmishlar...
Yang'ig'iga kelin bo'lgan bir qizning
Ko'kragini eri bo'lg'on yigitning
Jonsiz yotqon gavdasi uzra qo'yub
Nayza bilan teshmishlar...

Xotunlarning pardasi,
Bolalarning yuragi,
Qarilarning gavdasi
Yorilg'on, ezilg'on...

Shoir so`roqqa tutadi:

Kim bergan

Bu o`g`urli o`lkaga buncha o`tni?

Kim to`kkan

Bu muqaddas ishga buncha qonni?

Bilmaysizmi?

Bu dahshatlarning bunyodkori kim? “Tulki bilan shayton”ga dars bergan “mal`un” kim? So`roq beradi shoir va “anglizlar!” “hamda uning quyrug`ini tutqonlar”, - deya javob beradi. Shu she`rni tahlil qilgan taniqli jadidshunos olim, professor Begali Qosimov quyidagilarni yozadilar: “Qay yer bu o`lka? Hindmi? Afg`onmi? Turkistonmi? “Angliz”chi? U shartli emasmikan? She`rni, albatta, kengroq ham, torroq ham tushunish mumkin. Ya`ni, Sharq-G`arb, Turkiston-Rus shaklida ham anglash mumkin. To`g`rirog`i ham keyingisi bo`lsa kerak. Va bunga yetarli asos bor edi. Uzoqqa borish shart emas, Qo`qon fojiasini eslash kifoya”¹³.

Xuddi shu she`r H.Boltaboyevning ham diqqatini jalb qilgan. Olim she`rning g`oyaviy-badiiy salmog`iga katta baho berib, “Fitratning poetik merosida “Sharq” deb nomlangan kichik doston (shoirning o`zi uni “poema” deb tavsiya etadi) ” salmoqli mavqega ega. Unda shoir o`tli Sharqning “dardli, og`ir yaralarini yorib” ko`rsatadi”, - deb yozadi.¹⁴

Jadid she`riyatiga oid maxsus tadqiqot yaratgan adabiyotshunos Nodira Afoqova ham mazkur she`rga to`xtalib o`tib, “Fitrat, umuman,

¹³ Qosimov B. Maslakdoshlar. – T. Sharq, 1994. – 104-bet.

¹⁴ Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – 73-74-b.

insonning inson tomonidan tahqir etilishga, inson erkiga tajovuz qilinishiga qarshi edi”, - deydi.¹⁵

Sharq mavzusi shoirning boshqa sheʼrlarida ham davom ettirildi. “Bu muqaddas ishga qonini toʻkkan”, yurt hurligi uchun kurashganlar qurbon berildi. Bunga sabab zamona zulmigina emas, balki avomning oʻz vatandoshlari va oʻgʻlonlari taqdiriga loqaydligi hamdir. Shoir “Ovunchoq (Mirmuhsinga bagʻishladim)”, “Behbudiyning sagʻanasin izladim” kabi sheʼrlarida ham mavzuni davom ettiradi, rivojlantiradi.

Qop-qora, eski, titrak

Oldimizni toʻsib turgan bulut parchasi

Kuchli bir el koʻrgach turmas, yirtilar, - deya umid qiladi u. Biroq umidning oʻzi tanho najot yoʻli emas, shuning uchun oʻsha kuchli elni tashqaridan emas, oʻz elining farzandlaridan kutadi:

Soʻkish, qargʻash, laʼnat

Aralash boʻgʻiq tovushlarni

Quvla sen bu sezgisiz oʻlkadan.

Fitrat adabiyotshunos olim sifatida Sharq sheʼriyatining jozib xislatlarini oʻz ilmiy asarlarida tahlil etgan boʻlsa, shoir sifatida sheʼrlarida oʻsha jozibani amaliyotda koʻrsatib bera oldi.

Fitratning sheʼrlari vazn, qofiya, shakl nuqtai nazarlaridan mutlaqo yangi sheʼrlar boʻlsa-da, biz unda ming yillik nafis sharq sheʼriyatining toʻq obrazlilikini, teran ramziyligini, yuksak pafosini, yorqin tasviriyligini koʻra olamiz.

Fitrat sheʼriyatida sevib qoʻllanilgan usullardan biri taʼdid, tansiq us-sifot – yaʼni uyushiq boʻlaklarga asoslangan sanʼatlardir. Shoir biror narsa–hodisani sifatlarini qatorlashtirishni (tansiq us-sifot), shu orqali muayyan predmet yoki hodisani har taraflama koʻrsatishni, urgʻu berishni sevgani singari baʼzan otlarni ketma-ket keltirib

¹⁵ Afoqova N. Jadid sheʼriyati poetikasi. – T., Fan, 2005. – 96-b.

ta`kidlashni ham haddi a`losiga ko`taradi. Uning ilk she`rlaridan biri bo`lgan “Mihani mo” she`ridayoq bu usulni ko`ramiz:

Binmo sahari azmi tavofi vatani man,
Oh-oh, chi vatan, sajdagohu jonu tani man.
Ham mohi manu osoyishi, izzu sharafi man,
Ham Ka`bai man, qiblai man, ham chamani man.

Tarjimasi:

Tongla tavof aylagali chiq, Vatanimdur,
Oh-oh, ne Vatan, sajdagohu jonu tanimdir.
Izzat, sharafim, tinchimu arshimda to`lin oy,
Ham Qiblamu ham Ka`bamu va ham chamanimdur.

Shoir 1-misradan tashqari barcha misralarda ta`did usulini qo`llaydi. Vatanning lirik qahramon uchun qanday bir muhim ekanligini aynan ta`did orqali ta`kidlaydi. U ta`did qatoriga 10ta otni tizadi. Bunday usul o`quvchida kuchli taassurot uyg`otadi. She`r hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf (maf`uvlu mafoiyly mafoiyly fauvlun) vaznida yozilgan. Tarjimada ham vazn va badiiy san`at saqlangan.

Xuddi shu usulni 1917-yilda yozilgan «Yurt qayg`usi” she`rida ham ko`ramiz:

Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir,
Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?¹⁶

Muallif inson uchun ko`z qorasiday aziz, hayotdan qadrli bo`lgan barcha narsasini Vatan yo`lida tikishga tayyor; bular: jon, nomus, vijdon va imon. Tikish uchun tayyor qo`yilgan qadriyatlarining o`ziyoq Vatan tushunchasining naqadar yuksakligidan dalolat beradi. Vaholanki, bularning barchasi inson uchun hamma narsadan, hatto hayotidan ham balandroq turadi. Bu she`r ham yuqoridagi vaznda yozilgan.

¹⁶ Fitrat A. Tanlangan asarlar. To`rt tomlik. 1-tom. – T., Ma`naviyat, 2000. – 32-b.

Fitrat sheʼrlarida uchraydigan yana bir mumtoz sanʼat – istioradir. Maʼlumki, istiora – Sharq mumtoz sheʼriyatining eng koʻp qoʻllangan tipik vositalaridan biridir. Istiora – badiiy koʻchimlardan biri. “Oriyatga olmoq”, yaʼni birovning buyumidan badalsiz, toʻlovsiz foydalanib turish degan maʼnoni anglatadi. Istiora oʻxshatish asosidagi koʻchim boʻlib, baʼzan uni “qisqargan oʻxshatish” ham deydilar. Chunki tashbeh – oʻxshatishning 4ta unsuri boʻladi: 1. Oʻxshatilgan narsa – mushabbah. 2. Oʻxshagan narsa – mushabbah. 3. Oʻxshash jihat – vajhi shibh. 4. Oʻxshatish vositasi – odoti tashbeh. Masalan, “qor kabi oppoq soch” deydigan boʻlsak, soch - oʻxshatilgan narsa (mushabbah); qor - oʻxshagan narsa (mushabbah); oqlik - oʻxshash jihat (vajhi shibh); kabi - oʻxshatish vositasi (odoti tashbeh) boʻladi. Agar shu oʻxshatishdan uchta unsur: oʻxshatilgan narsa – mushabbah, oʻxshash jihat – vajhi shibh va oʻxshatish vositasi – odoti tashbeh olib tashlansa-yu, matnda shoich “yogʻdi oʻt ustiga qor” (Alisher Navoiy) desa, “qor” bu yerda istiora, aniqrogʻi yopiq istiora boʻladi. Yopiq istiora xuddi topishmoqqa oʻxshaydi, yopiq istiorada shoir nimani nazarda tutganligini matndagi boshqa soʻz, obraz va belgilarga koʻra aniqlash mumkin boʻladi. Sharq sheʼriyatida, masalan, Bedil ijodida baʼzan shunday murakkab istioralar ham yuzaga kelganki, ularni topish butun-butun davrlarda bahsu munozaralarga sabab boʻlgan. Ochiq istiora esa aniq tushunchani mavhum tushuncha bilan yonmayon keltirish orqali hosil qilinadi. Ikki soʻzli bunday birikmalarda soʻzning bittasi oʻz maʼnosida, ikkinchisi koʻchma maʼnoda keladi. Oʻz maʼnosidagi soʻz istiorani tushunish uchun kalit-ochqich vazifasini oʻtaydi. Ochiq istioralar koʻp hollarda “aniqlovchi+aniqlanmish” yoki “ega+kesim” shaklida boʻladi. Masalan, “xotira siniqlari” (Zulfiya), “esgan malomat” (Nodira Afoqova), “tun gurkirab oʻsar” (Shavkat Rahmon) kabi. Bu birliklarda “xotira”, “malomat”, “tun” soʻzlari oʻz maʼnosida kelib, “siniqlari”,

“esgan”, “gurkirab o`sar” so`zlarining ko`chma ma`nosini ochishga xizmat qiladi. Ya`ni ijodkor bir narsani ikkinchi bir narsaga o`xshatadi-yu, mushabbahunbehning biror atributi-belgisini mushabbahga daxldor qiladi. Deylik, Zulfiya xotirani oynaga, Nodira Afoqova malomatni shamolga, Sh.Rahmon tunni daraxtga qiyoslagan. Mana shu o`xshatishni matn ortida, matematik termin bilan aytganda, “ko`ngil”da qoldirib, mushabbahunbehni yashirgan. Shu tariqa istiora paydo bo`lgan.

“Ovunchoq” she`rida shoir oydinlik, bulut, el singari yopiq metafora(istiora)lardan, shuningdek, “umid guli” degan ochiq istioradan foydalandi;

To`sib turgan oydinlikning yo`lini
Shu qop-qora, eski. Titrak bulutlar
Kuchli bir el ko`rgach, turmas, yirtilar,
Umid kuni sening uchun ham tug`ar.

She`rning dastlabki o`zbek jurnalisti va ma`rifatparvarlaridan biri bo`lgan Mirmuhsin Shermuhammedovga bag`ishlanganini, uning isyonkorlik ruhida asarlar bitgani, hatto 1917-yil 25-aprelda “Turon” gazetasida bosilgan bir maqolasi uchun jazoga tortilib, toshbo`ron qilib o`ldirishga hukm qilinganini nazarda tutsak, bu istioralarning ham ma`nosi oydinlashadi. Fitrat oydinlik istiorasida – hurlik va ozodlikni, bulutlar istiorasida – zulm va istibdodni, kuchli el istiorasida – xalqning zulmni qo`porib tashlashga qodir qudratli kuchini nanazarda tutadi. Va she`rning oxirgi misralarida “Umid guli bizim uchun ham tug`ar” deya istiqbolni gul qiyofasida tasavvur etadi.

Shoirning muhabbat mavzuidagi she`rlarida an`anaviy “gul”, “malak”, “qora ko`zim”, “nozli quyosh” singari istioralardan ham foydalanadi. Ishqiy she`rlarda, shuningdek shoir badiiy tasavvurining mahsuli bo`lgan istioralarga ham duch kelamiz:

Go`zalim, bevafo **gulistonim**,

Bog' umrimda toza **rayhonim**.

G'amu qayg'ularim hujumidan

Sen eding mehribon nigahbonim.

She`r an`anaviy aruzda – hafif bahrida bitilgan bo`lsa ham, undagi chaman, bog' bilan bog'liq tasvirlar mumtoz she`riyatni esga solsa ham, yorni gulistonga, rayhonga istiora qilish davr she`riyatida yangilik edi.

Fitratning vatan qayg'usi, yurtning xaroblighi, jaholat mavzulari qalamga olingan she`rlarida she`rxon qalbini titratguvchi boyqush, haqsizliq shahri, bahorsiz cho`llar (“Behbudiyning sag`anasin izladim”); qop-qora haykal, mungli kecha, mungli uy, sham` (“Mening kecham”), qullik chuqurlari, qayg'u tutunlari, zulm zanjirlari, jahannam ilonlari, shayton qo`shinlari, zulm cho`lining temir tikonlari («Yurt qayg'usi”) singari istioralarga duch kelamiz. Bu istioralar qalbi yoniq ma`rifatparvar yashagan davrning manzarasini tasavvurimizda oydinlashtiradi. Qalbdagi vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'ularini uyg'otadi. Ayni paytda yuksak badiiyat nishonasi o`laroq estetik zavq tug'diradi.

Fitrat jonlantirish, o`xshatish, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalaridan ham mahorat bilan foydalangan.

Sen kelgach

Xayolim

Umid, armon chechaklari ochilgan

Uchmoq kabi bog'chalarda bulbuldek

Sayrab yubordi.

“Nega bo`yla?” degan ishqiy she`rdan olingan ushbu parcha o`zining badiiy quvvati bilan mumtoz g'azallardan hech bir qolishmaydi. Chunki unda shunchaki bayon, ma`lumot qabilida qo`llangan bitta ham so`z yo`q. Har bir so`z muayyan tasviriy vositaning uzviga aylangan, har bir so`z visoldan mast oshiqning toza

tuyg'ulari bilan ruhlanib turibdi. Bu manzarada visol – jannatiy bog'chadek tasavvur etiladi, bu bog'da umid va armon otlig' chechaklar o'sadi. Yorning tashrifi bilan bu jannatiy chamanda oshiqning xayoli bulbul singari sayrab yuboradi. Birgina “sayrab yubordi” f'e'lining o'zida qancha ko'tarinkilik, shodlik va oshuftalik mujassam! Yo`q. Shoir “sayradi” demaydi, aynan “sayrab yubordi” deydi. Mana shu birgina ko`makchi fe`lning o`ziyoq kutilmagan shodlikni, pafosni, zavqni ifoda etib turibdi.

Shoir “Yana yondim” she`rida “To`sib turar yo`limni umidsizlik qayg'ulari tongi otmas bir tunday” deya umidsizlikni nihoyasiz tunga o`xshatsa, “Shoir” she`rida “Bashariyat dunyosin kichik, nozli qanoti uzra qo`yar” deb, ilhomning, so`z dunyosining tabiatini ochib beradi. Mana shu misra darhol ko`z oldimizga nozik qanotlari bilan uchib yurgan ilhom ma`busini jonlantiradi. Ammo mana shu nozik qanotda shoir bashariyat dunyosini ko`tarishga qodir! Mana tazod, mana istiora!

“O`gut” she`rida esa tazodning ajoyib ko`rinishiga duch kelamiz. She`r o`zbek yigitiga murojaat tarzida yozilgan bo`lib, Fitrat aynan mana shu yigitning ko`zlarida xalqni nurli istiqbolga olib chiquvchi nurni ko`radi. Shuning uchun uni kurashga, tinmaslikka, harakatga, shijoatga da`vat etadi. Bu da`vat tazodiy fe`llardan tiziladi:

Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal,

Hurkma – kirish, qo`rqma – yopish, yo`rilma – qo`zg'al.

Bu parchadagi yo`rilma so`zi “sudralma” degan ma`noni anglatadi.

Fitrat barmoq vaznini o`ziga xos tarzda qo`llaydi. Chunonchi, uning “Bir oz kul” she`ri 11 hijoli barmoqda yozilgan, ammo 4-bandning 3-4-misralaridan keyin qo`shimcha misralar kiritilgan:

Tuproq kabi yiqilmisham yo`lingda

deya olmam.

Istar esang menga kelib gapurma,

yonimda hech o`turma.

Bu she`r tashqi jihatdan mustazodni esga soladi.

“Ovunchoq” she`ri ham 11 hijoli barmoqda, faqat 5-misra 3 hijoli, 12-misra 7 hijoli, qofiya yo`q. Savol tug`iladi: nega bu she`rlarning ayrim o`rinlarida vazn buzilgan? Buning sababi shundaki, shoir o`z fikr-kechinmalari, hislarining to`lqinlarini mana shu tariqa shaklda – notekis ritmda ham ifoda etadi.

Bunday hodisa boshqa she`rlarda ham kuzatiladi. “ishqimning tarixi” she`ri $8+8=16$ hijoli vaznda, 2- va 3-bandlarda bu tartib buziladi:

Lekin sen, ay yuragimning birdan bir sevikli yori,

Ko`rkamlik bog`chalarinda sezmasdan qayg`ularimni

bulbuldek sayrab ucharding.

Ko`klarning xoniga o`xshab – kimlarning o`rtanishini

Bilmasdan, yerdagilarning dunyosin naq yoritarding.

Qoldikcha bo`yla xabarsiz ishqimdan, jon chechagim sen,

Ko`nglimning tuyg`ulari-la shoirlik sezgularimni

Bu yo`ldan o`tki solarding, bir qo`ldan yerga urarding,

ham yo`q etarding,

fikrimning to`plaganini.

Fitrat she`rlarida ba`zan aksincha holat – muayyan turoqlarning yetishmasligi holati ham kuzatiladi. “Achchig`lanma degan eding” she`ri 15 misra, $4+4+2=10$ hijoli barmoqda, faqat 13-misra 9 hijoli bo`lib, turoqlari $4+2+3$ tartibida keladi. Bizningcha, bu holat, birinchidan, XX asr boshlarida barmoqni o`zlashtirish yo`lidagi qiyinchiliklar bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, Fitrat qalbidagi erkinlikka bo`lgan intilish uning she`rlarida, bu she`rlarning shaklida ham o`zini namoyon etgan. Fitrat hislarini erkin qo`ygan, uni aruz ramkalari ichida ham, barmoq ramkalari ichida ham qisintirishni istamagan.

Umuman olganda, Fitrat she`riyatda yuksak mahorat namunalarini ko`rsata oldi.

UCHINCHI BOB

FITRAT DRAMALARI VA MILLIY TAFAKKUR

III.1. Fitrat dramalirida milliy uyg'onish g'oyasi

Fitrat adabiyotga, umuman, ijtimoiy faoliyatga jadid sifatida kirib keldi. Ma'lumki, jadidlar mustabidlik asoratiga tushib qolgan Vatanni ozod va mustaqil ko'rishni, qadimiy millatchiligimizni tiklashni, taraqqiyotda Yevropa davlatlariga yetib olishni, jaholat va qoloqlikka barham berishni, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalarini isloh qilishni orzu qilgandilar va o'zlarining butun faoliyatini shu orzularini ro'yobga chiqarishga yo'naltirgandilar. Jumladan, Fitrat ham ijtimoiy hayotga faol aralashar ekan, dastlab Buxoro amirligidagi siyosiy va ijtimoiy voqelikni isloh etish fikrlari bilan chiqqandi¹⁷. 1917-yil fevral inqilobidan keyin esa, Turkistonni istibdod zulmidan qutqarishga bag'ishlangan bir qator publitsistik maqolalar e'lon qildi¹⁸, o'zining «Temur sag'anasi» nomli dramasida bu fikrlarini badiiy ifoda etdi. Xuddi shu davrda uning publitsistik ijodida xalqaro mavzuga ko'tarilish sodir bo'ladi. Fitratning mazlum Sharq va mustabid G'arb mavzuidagi «Ingliz va Turkiston»¹⁹, «Sharqda inglizlar»²⁰ «Afg'oniston ishlari»²¹, «Sharq siyosati»²², «Yig'la, islom»²³ kabi publitsistik maqolalari buning yorqin misolidir. endi publitsist Fitrat «Turkiston va mustabidlar» mavzuidan ko'tarilib, «Mazlum Sharq va zolim G'arb» mavzuidek yirik va keng qamrovli darajaga ko'tarildi. Bu esa, uning badiiy ijodida ham aks etdi. Xuddi shu tariqa «Chin sevis» va «Hind ixtilolchilari» dramalari yuzaga keldi.

¹⁷ Fitrat. Munozara. -Toshkent, 1913.-41 b. Yana uning «Hind sayyohining qissasi //Sharq yulduzi (qayta nashri). 1991.-B.7-39.

¹⁸ Fitrat. Muxtoriyat //Xurriyat. 1917-5dek.; Ittifoq etaylik//Yoshlik, 1991.- №10.-B.44; Turkistonda ruslar //Sharq yulduzi (qayta nashri) 1991.-№1.-B.21-27.

¹⁹ O'sha muallif. Sharqda inglizlar //Tong.-1920.-№2. B.13-19.

²⁰ O'sha muallif. Ingliz va Turkiston//Hurriyat.-1918.-29 mart.

²¹ O'sha muallif.Afg'oniston ishlari // Ishtirokiyun. -19919.-11 mart.

²² O'sha muallif.Sharq siyosati//Ishtirokiyun. 1919, 25-26 okt.

²³ O'sha muallif.Yig'la,,islom.//Ishtirokiyun. 1919 y.-11 apr.

Mazkur dramalarning yaratilishi uchun yana bir narsa omil bo`lgandi: bu sho`ro hukumatining G'arb imperialistik siyosatini fosh qilish yo`li bilan xalqaro miqyosda o`z mavqeini, obro`yini mustahkamlab olishni mo`ljallagani edi. 1919-20-yillarda sho`ro matbuotida G'arb imperialistlarining, shu jumladan, Angliya jahongirlarining bosqinchilik, talonchilik siyosatini fosh etuvchi maqolalar ko`plab e`lon qilingandi. 1920-yil sentyabr' oyida G'arb imperialistlarining bosqinchilik, talonchilik siyosatiga qarshi Bokuda Sharq xalqlarining 1-qurultoyi uyushtirilgan edi. Mana shu omildan ham Fitrat o`z maqsadini amalga oshirishda mohirlik bilan foydalangandi.

Demak, «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» dramalariga asos bo`lgan mavzu G'arb jahongirlikning yovuz qiyofasini ko`rsatish niyati edi. Bu niyat zamirida Turkistonni yangicha shakldagi mustamlakachilikda tutib turgan sho`rolar hukumatining asl basharasini ochib tashlash maqsadi ham mujassam edi.

Ushbu bobda biz dramaturgning «Chin sevish» pyesasiga zamin hozirlagan va bilvosita shu mavzuga bog`liq publitsistik maqolalarini o`rganib chiqdik. «Sharqda inglizlar», «Sharq siyosati», «Afg'oniston ishlari» kabi siyosiy-publitsistik chiqishlarda ushbu dramaga oziq bo`lgan ildizlarni topishga urindik. Dramaturgning siyosiy shaxs sifatidagi kamolotida bu maqolalar muhim o`rin tutganligi ko`rinadi. Dissertant o`z tadqiqoti davomida «Chin sevish» dramasining yozilish sabablarini aniqlashga harakat qilar ekan, quyidagalarni ham qayd qilib o`tadi:

Birinchiidan, muallif drama janriga murojaat qilar ekan, uning «tomosha» (Fitrat istilohi - N.D.) ekanligini va bu vosita orqali o`z g'oyasini «tomoshachi»ga kengroq yetkazish imkoni borligini yaxshi bilgan.

Ikkinchidan, dramaning tili jonli soʻzlashuv tiliga asoslanishi va xalqning ushbu uslubni tezroq qabul qilishini hisobga olgan.

Uchinchidan, muallifning ilk asarlaridayoq dramaga moyillik bor ediki, («Munozara», «Hind sayyohining qissasi»dagi dialoglar nazarda tutiladi) dramaturg bu usulini ham chetlab oʻta olmagan.

Toʻrtinchidan esa, Fitratning bu vaqtga kelib dramaturg sifatidagi tajribasi ancha ortib qolgan edi. («Begijon», «Abo Muslim», «Qon» kabi dramalarini muallif 20-yillargacha yozib boʻlgan edi).

Beshinchidan, inqilobdan soʻnggi dastlabki yillarda gazeta-jurnal chiqarish, kitob nashr etish ishlari nihoyatda qiyinchilik bilan ogʻir iqtisodiy sharoitda olib borilgan.

Oltinchidan, xalq uchun gazeta-jurnal oʻqiy olmaydigan mehnatkash omma uchun teatr tomosha qilish qulay boʻlgan.

«Chin sevish» dramasi qadar Fitratning mustaqillikka eltuvchi kurash yoʻllari tafakkurida shakllanib boʻlgan, ulkan bir dard ijodkor qalbini bezovta qilayotgan, bu dardni u xalqqa toʻkmasa boʻlmasdi. L.N. Tolstoy «Dramani koʻnglida odamlarga aytadigan muhim gapi bor kishilargina yoza oladi» degani bejiz emas. Fitratning aynan inqilobiy ruhdagi dramalar yozishining asosiy sababi, xalqning milliy ozodlikka boʻlgan ehtiyojidir. Xuddi ana shu ehtiyojni badiiylashtirib sahnaga olib chiqishidan maqsad, millat uchun toʻgʻri yoʻl koʻrsatmoqdir.

«Adabiyot ochununda bir soʻz bor. Derlarkim, bir adib bir tiyotr, yo bir roman yozganda, oʻzining miyasindagi sezgularindan boshqa narsani tasvir eta olmaydur»²⁴. «Chin sevish» qahramonlaridan biri Sarvarxon shunday deyar ekan, bu soʻzlar Fitratning drama orqali aks etgan badiiy olamiga kirish uchun vosita boʻlib xizmat qiladi. Dramaturg «miyasindagi sezgular» tabiiyki, yurt ozodligi bilan

²⁴ Fitrat. Chin sevish. -Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1996.- B.39.

to'yingan edi. Xuddi shu «sezgu» shaklidagi g'oya «Chin sevish» asarining butun voqeligini qamrab oldi. Pyesada hind ixtilolchilarining milliy ozodlik g'oyasi aks etgan. Asar syujeti ishq mavzusi bilan bog'langan bo'lsa-da, dramadagi butun voqea kurash g'oyasi tegrasiga jamlangan. Dramaturgning mahorati shundaki, bosqinchilarga bo'lgan nafrat tuyg'usi asarning har bir sahnasiga singdirib yuboriladi.

Dramaturg milliy ozodlik g'oyasini asar qahramonlari ongida mustabidlik tuzumga nisbatan norozilik kayfiyatining tug'ilishi bilan bog'laydi. Tabiiyki, bu norozilik inqilobiy kurash yo'lga boshlab boradi: «Inqilob va o'zgarish fikri ko'p qiziqdir. Bu fikr bir o'lkaga kirib oldimi; undan so'ng chiqarishi qo'ldan kelmas; o'lkani butun yondirsalar ham kullari ichra yashirinub qolar»²⁵. Ushbu asarda mustamlaka Hindiston o'lkasiga «kirib olgan o'zgarish (ya'ni inqilob - N.D.) fikri»ning tub sabablari obrazlar va ularning nutqlari orqali yetarlicha dalillanadi. Tadqiqotchi har bir personajning so'ziga alohida e'tibor qiladi. Har bir so'zni asar g'oyasining ifodasiga va badiiy qimmatiga ko'rsatadigan ta'siri bilan belgilashga urinadi. Ichki «monolog-murojaat» xillari to'g'risida ham fikr yuritadi. Asar bosh qahramoni Nuriddinxonning «monolog-mulohaza»sida milliy ozodlik g'oyasi qay darajada maromiga yetgani xususida so'z bayon etiladi.

«Chin sevish» dramasiining butun mohiyat e'tibori tomosha orqali xalqning «ko'zini ochish»ga, ya'ni mustabidlikning yovuz va sharmandali qiyofasini ko'rsatishga qaratiladi.

Gegelning fikricha, san'atda ikki xil dunyoqarash farqlanadi. Ulardan birinchisi san'atni «vazifadan iborat», ikkinchisi «vazifalardan xoli», deb biladi²⁶. Demak, estetik ta'limotda ham, san'at, jumladan, dramatik san'at vazifa bajarishi lozim, degan fikrni tasdiqlaydi. M.Behbudiyning maqolalaridan birida «Teatr nadur?»

²⁵ Fitrat. Afg'oniston ishlari//Ishtirokiyun. 1919, 30 apr.

²⁶ Anikst A. Teoriya drammi ot Aristotelya do Gegelya.// M.: Nauka. 1967. S.- 64.

degan savolga «Teatr ibratnomadur»²⁷ deya javob qaytarilishi asrimiz boshida haqiqatan ham teatrga «ibratnoma» deya qaralgan umumiy fikr shakllanganini ko`rsatadi. Fitrat o`z dramasida ana shu fikr chizig`ida harakat qiladi.

«Chin sevish» dramasida Sharq va G`arb ko`p jihatlari bilan bir-biriga qarama-qarshi qo`yiladi. Ular orasidaga eng katta ziddiyat birini ikkinchisiga qarshi murosasiz kurashga tortgan narsa G`arbning Sharq ustidan hukmronligidir. Asar mustamlakachilik tuzumiga cheksiz nafrat tuyg`usi bilan yo`g`rilgan. Bu dramadagi personajlar vositasida yaxshi ochib berilgan. Mustabid inglizlar bilan mazlum hindistonliklar orasidagi tafovut Sherxon, Ayyubxon, Rahmatulloh va G`ulom Haydarlar orasidagi dialoglar vositasida tomoshabinga yetkaziladi. Peshovar shahrida politsiya boshligi bo`lgan inglizni hindlar bomba portlatib o`ldirganlar. Buning uchun inglizlar jazo choralarini faqat Peshovardagi mahalliy aholiga emas, balki Dehlidagilarga ham qo`llaydilar. Bundan g`azablangan asar personaji o`z noroziligini yashirolmaydi:

«G`ulom Haydar: Uyimizda tinchgina o`tirganga qo`yasizmi?!

Sherxon. Uni tangri biladir. Har holda erta kechadan boshlab uyingizdan chiqmassiz.

G`ulom Haydar: Nechanchi soatdan?

Sherxon. Soat to`qqizdan tong otarg`acha. Ko`chada ko`ringan kishi ingliz esa, ertagacha saqlagandan keyin qo`yaveramiz. Hindistonli-da, esa turmaga yuborib bir oy qamarmiz.

G`ulom Haydar: O`h-ho`! Bir ingliz bilan hindistonli orasida shuncha ayirma bormi?

Inson sha`nini, qadr-qimmatini yerga uradigan narsa - bu milliy tahqirlash. Mazlum bo`lgan millat vakillari milliy tahqirlanishga mahkumdirlar.

²⁷ Behbudiy M. Teatr nadur? // Oina.-1914.-№9.-B.15

Hokim millat vakili mazlumlarga qarata deydi:

Yuzboshi: Hoy, xoin musulmonlar! Ingliz kabi buyuk bir davlatning qo`l ostindan chiqmoq uchun tirishma. O... ingliz millati bu to`pponchalarni sizning ko`kraklaringizni teshmak uchun yasagandir.

Shu tariqa personajlar tilidan mustamlakachilikning og`ir va sharmandali turmushi anglashiladi.

Dramaturg Fitratning maqsadi mustamlakachilikning manfur qiyofasini ko`rsatish, istibdod zanjiriga solingan Vatanning xor bo`lishini anglatishdir. Modomiki, asar «Chin sevish» deb atalar ekan, unda muhabbat tasviri bo`lishi, bo`lganda ham yetakchi, asosiy mavzu tariqasida kelishi lozim edi. Lekin dramaturgning maqsadi yuqorida zikr etilgandek bo`lgani uchun muhabbat mavzusi ikkinchi darajali o`ringa tushirilgan. Asardan buni daf`atan anglab bo`lmaydi. Sinchiklab e`tibor berilgandagina sevgi-muhabbat mavzusi ikki qirraga ajralganini, biri personajlar sevgisi bo`lsa, ikkinchisi ona Vatan sevgisi ekanini anglash mumkin.

«Chin sevish» dramasi bosh qahramonlari Nuriddin va Zulayxo bir-birlarini sevadilar. Lekin ona Vatan - Hindiston ingliz mustamlakachilari etigining poshnasi ostida ingrab yotganida Nuriddinning shaxsiy muhabbatigagina intilishni o`ziga or deb biladi. Shu bois, u Zulayxoga bo`lgan sevgisini atrofdagilardan, hatto, yaqin do`stlaridan ham pinhon tutadi. Ona Vatan istibdod zanjirida, uni qutqarish uchun kurashmoq kerak.

Taqdirning ishini qarangki, shunday mas`uliyatli paytlarda Nuriddinning qalbini Zulayxoga bo`lgan sevgi egallab oladi. Bundan u sevinish o`rniga qayg`uga tushadi. Zero, ona Vatanni ozod etmay turib shaxsiy muhabbati ixtiyoriga berilish haqiqiy insonning ishi emas. Haqiqiy muhabbat, ya`ni «Chin sevish» ona Vatanni jondan sevgan kishilardagina bo`ladi. Mana muallifning bosh g`oyasi.

Muallif muhabbatga bu tarzda muqaddas deb qarash Sharqqagina xos, degan g'oyani ilgari surmoqchi bo`ladi. Nuriddiniig quyidagi gaplari buning dalilidir: «Ovrupoda hayvonlikdan boshqa narsa yo`qdir. Ular ruhoniy lazzatdan bir narsa anglayolmaylar. Chin sevish va haqiqiy ishqning tub yeri Sharqdur».

Shuni ham ta`kidlash kerakki, dramaturg Nuriddinning Zulayxoga bo`lgan otashin sevgisini butun yolqini bilan tomoshabinga ko`rsatishi kerak edi. Bosh g'oya buni ochiq ifoda etishga «to`siq» bo`lib turibdi. Dramaturg mohirlik bilan buning yo`lini topadi.

To`rtinchi pardadagi tush sahnasi yordamida tomoshabin buni anglab oladi. Tushida Zulayxoni ko`rgan Nuriddin o`zining vujudini o`rtovchi sevgisini izhor etadi. Bu sahna pyesaning eng ta`sirli o`rinlaridan sanaladi. Ishqiy-hissiy-siyosiy drama yaratish oson ish emasdi. Dramaturg Fitrat esa, buning uddasidan ustalik bilan chiqa olgan. Shu bois ham «Chin sevish» spektakliga taqriz yozgan Cho`lpon «Yaqinda o`zbek sahnasi ulug' va ulug'ligi qadar yuksak va go`zal bir tomosha (pyesa) ko`rdi»²⁸, - deb yozgandi.

Fitrat ona Vatan ozodligi g'oyasini tomoshabinga singdirishni niyat qilgan. Bu g'oya siyosiy mazmunga ega bo`lgani uchun muallif personajlarning mushohadali monologi, ramzli dialogi kabi badiiy usullardan o`rinli foydalangan.

Dramada his-tuyg'u ifodasi yorqin aks etib turishi bilan birga, nozik psixologik holatlar manzarasiga ham yetarli ahamiyat berilgan.

Muallif bosh g'oya - Vatanni ozod qilish g'oyasini ochish uchun publitsistika janriga xos xususiyatlarga ham murojaat qiladi. Buni Raisning quyidagi gaplari isbot qiladi: «To`rt yuz millionli bir ulusning tulki qiliqli o`n ming ingliz ma`muriga qul bo`lib turishi miyalarga sig`mas bir ishdir. Bu qiziq ishni ko`rgan tarixning, bizning inson bo`lg`animizg'a ishong`usi kelmaydur».

²⁸ Cho`lpon. Chin sevish (haqida) // San`at (qayta nashri).- 1991.-№4.-B.4.

Dramaning konflikti ham bosh g'oya bilan uzviy bog'langan. «Chin sevish»dagi asosiy to'qnashuv bir-biriga murosasiz siyosiy muxoliflar: erksevar vatanparvarlar bilan mustabidlar hamda ularga sotilgan xoinlar orasida yuz beradi. Shaxsiy manfaatlar, kelishmovchiliklar, zamirida yuzaga kelgan konfliktga e'tibor unchalik qaratilmaydi. Shu bois bo'lsa kerak, Nuriddin sevgilisi Zulayxo vositasida raqibiga aylangan Rahmatullohga nisbatan deyarli konfliktda bo'lmaydi. Umuman, muhabbat «masalasi» osonlikcha hal etiladi: qiz otasining maslagiga mos yigitni yaxshi ko'radi, otasi va boshqa kishilar (qo'mitachilar) sevishganlarning bir-birlariga yetishuvlariga yordam berishadi. (Nuriddin qo'mitachilar ko'magi bilan qutqarilib, Karimbaxsh xonadoniga yashiriladi). Bu hol asardagi dramatismni bosh g'oya talabi bilan yetarlicha rivojlantirmay qo'ygan. Bu juz'iy kamchilik «Chin sevish»ning g'oyaviy-badiiy qimmatini pasaytira olmaydi. Drama uzoq yillar tomoshabinlar xotirasida saqlanib qolgan. Buning boisi adib Hamid Olimjon yozganidek, «Fitrat Hindiston hayoti mavzusini aks ettirsa ham, mazmunda tamom Turkistonda qoladi»²⁹.

Xulosa qilib aytganda, «Chin sevish» dramasi tom ma'noda milliy ozodlik kurashi g'oyalarini yoritishga bag'ishlangandir. Shu sababli asardagi barcha ijobiy qahramonlar ushbu g'oyani ozmi-ko'pmi amalga oshirishda alohida o'rin tutadi. Asardagi ijobiy obrazlarning barchasi buning yorqin misolidir. Bu g'oyani yoritishda muallif barcha imkoniyatdan to'liq foydalanadi, shunday bo'lsa-da, ayrim xatti-harakatlarning yetarlicha dalillanmaganini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Fitratning asosiy maqsadi olamshumul san'at asari yaratish emas, millatning o'z taqdiri haqida o'ylashi uchun turtki beradigan tomosha yaratish edi. Ixtilolchilar timsoli orqali muallif ko'zlagan maqsadiga erishdi.

²⁹ Olimjon H. Fitratning adabiy ijodi haqida // Tom 6. Toshkent: Fan 1982.-B.205-242.

III.2. Fitrat dramalarida milliy ozodlik masalasi

Fitrat birinchi pyesasini tugatganidan keyin aytadigan «gap»lari qolganligi sababli o`z g`oyasini rivojlantirish maqsadida ushbu dramasini yozadi «Chin sevish»da muhabbat masalalariga bog`liq holda qo`mitachilarning tor-mor etilishi bilan uning xotima topishi muallifni qoniqtirmagan. Dramaturg «Hind ixtilolchilari»ni «Chin sevish» dramasiining ikkinchi qismi va qahramonlarining o`limi dramani bevosita davom ettirishga yo`l qo`ymagan. Fitrat yangi qahramonlarga murojaat qiladi. Lekin bu obrazlarni yaratishda birinchi drama ta`siridan chiqib keta olmaydi. Keyingi dramaga ham ikki yosh sevishgan yigit-qizni qahramon qilib olishi bilan Nuriddin va Zulayxo obrazlari boshqa ismlarda qayta sahnaga chiqariladi. Asar qahramoni Rahimbaxshning Nuriddindan farqi - u o`ta majnuntabiat emas, siyosiy kurashlarda shakllangan, tajriba orttirgan faol ixtilolchi. Ushbu dramada muallif ixtilolchilar obrazlarini yaratish asnosida Hindiston mustaqilligi uchun kurashayotgan qo`mitaning faoliyatini kengroq tanishtirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi. «Chin sevish»da mustaqillik uchun kurash g`oyasi ilgari surilgan bo`lsa, bu asar ana shu g`oya qay tarzda amalga oshirilayotganini ko`rsatishi lozim edi. Pyesa syujetiga asos qilib olingan voqealarni anglashda muarrix B.Soliyevning «Angliya zulmi ostida Hindiston o`lkasi» kitobi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur asarda shunday deyiladi: «Inglizlarga iltimos, so`rash bilan ish chiqmaslig`iga, mo``tadillarga (mahalliy ziyolilar firqasi - N.D.) qarag`anda yaxshiroq biladirlar. Bular qoshida birdan-bir chora qurol bilan qarshi chiqish, qurol bilan kurashish edi»³⁰. Hindiston milliy ozodlik harakatchilarining bu maqsadlarini Fitrat butun asar g`oyasiga singdirib yuborishga harakat qildi. U dramaga asosan, milliy-ozodlik kurashi vakillarini qahramon qilib oldi. Mustamlakachi guruh bilan ular o`rtasida kelishib bo`lmas

³⁰ Soliyev B. Angliya zulmi ostida Hindiston o`lkasi. Toshkent: O`zbekiston. -1926.-66 b.

kurashni aks ettirdi. Bosqinchi inglizlarni yurtidan faqat qurol kuchi bilan quvib chiqarish mumkin ekanligini badiiy tarzda ifoda etdi.

Fitrat vatan tushunchasiga o`ziga xos falsafiy mazmun yuklaydi. Insonning qadr-qimmatini belgilovchi eng katta mezonni «Vatan muhabbati» deb ataydi. Sevgining boshqa barcha ko`rinishlarini Vatan muhabbatidan tug`iluvchi sabab, deb ko`rsatadi. Drama qahramonlaridan Dilnavoz yor va Vatan muhabbatini ayri-ayri olib qarashni istaganda, Rahimbaxsh bu tushunchalarni alohida-alohida qilib bo`lmasligini, ularning biri ikkinchisini to`ldiradigan tushuncha ekanligini anglatadi. Dramaturgning muhabbat haqidagi qarashlari A.Avloniyning «Muhabbatsiz kishi hech bir ishni ishlamakka g`ayrat va jasorat qilolmas»,³¹- degan gaplariga hamohangdir.

Fitrat muhabbatga bog`lanib turgan insongina katta kurashlarga qobil ekanligini qahramonlari orqali isbotlaydi.

Dramaturg Fitrat «Chin sevish» da haqiqiy muhabbat egasi o`z Vatanning, xalqining ozodligi, erki uchun kurashmog`i lozim, degan g`oyani ilgari surar ekan, Nuriddinning iztiroblarini, ichki kechinmalarini ifodalash bilan chegaralangan bo`lsa, «Hind ixtilolchilari»da Dilnavozni sevgan Rahimbaxsh unga «Hindistonni sevganim seni sevganim emasmi?» deb ona Vatanga hamda yoriga bo`lgan muhabbatning mushtarakligini, umumiylikini, ularni ajratib bo`lmasligini ochiq aytadi. Shu bois «Hind ixtilolchilari»dagi barcha voqealar sevishganlar - Rahimbaxsh va Dilnavoz tegrasiga jamlangan, ular ixtiloll kurashining harakatlantiruvchi kuchlaridir.

Asardagi ixtilolchilar obrazlari talqini puxta o`ylangan ijodiy niyatning samarasidir. Istibdodga tushgan mamlakatni mustabid - «olbasti» inglizning changalidan qutqarmoq uchun barcha mazlumlar birlashishlari, yagona bayroq ostida kurash olib borishlari zarur. Shu g`oyani ifodalash uchun Fitrat ixtilolchilar obrazlarini kasbi, yoshi,

³¹ Avloniy A.Turkiy Guliston yoxud axloq.-Toshkent: O`qituvchi, 1992.-B.19.

e`tiqodi, dini, millati jihatidan ham xilma-xil qilib olgan; Rahimbaxsh, Dilnavoz, Abdusubbuh, Ornom Sing, Badrinat, Deynanat, Fazlullohlar ongli tarzda istiqlol uchun kurash maydoniga kirganlar. Mavlono No`mon - ikkilanuvchi, e`tiqodi mustahkam bo`lmagan kimsa obrazi. Kurol (ketmon) ko`targan dehqonlar qat`iyat bilan kurashga yo`l olgan xalq ramzidir. «Qari» va «o`rta» yoshli kurashchilar, raqamlar bilan belgilangan istiqlolchilar ham ozodlik uchun kurashga otlangan kishilarning son-sanoqsiz ekanligini ko`rsatish maqsadida dramaga kiritilgan. Adashib, ongsizligi oqibatida mustabidlarga xizmat qilganlarni ham mustaqillik uchun kurash rahbarlari o`z saflariga chorlaydi. Bu ham bejiz emas. Istiqlol uchun butun xalq, barcha millat, Vatan farzandlarining hammasi oyoqqa qalqmog`i lozim. Mana - muallifning g`oyasi.

Fitrat mahalliy aholining ichidan chiqqan xoinlarni Mavlono No`mon obrazi orqali ko`rsatgan. Shu o`rinda yozuvchi Hindiston voqeligini tasvirlasa-da, Turkistonni nazarda tutgani aniq ko`rinadi.

Ma`lumki, yangicha qarash egalari jadidlar bilan eskicha dunyoqarashda qolgan ulamolar o`rtasida muttasil kelishmovchilik mavjud bo`lib, u fevral inqilobidan so`ng, ayniqsa, kuchaygan. Bizningcha, Rahimbaxsh Turkiston jadidlarining vakilidek kiritilgan. Uning «...ulus yo`linda jon berganlar uning soqoli, choponi uchun emas, ortiqlig`i, fazilati tarixi uchun o`lalar» deyishi ham ulamolarni, asrimiz boshidagi ta`rif bo`yicha, «katta salla, uzun chopon»larni nazarda tutadi.

Fitratning jadidlar qarashlarini aks ettirgani Rahimbaxshning xotin-qizlar to`g`risida aytgan fikrlarida ham aniq ko`rinadi. U xotinlarning «to`rt devor» ichiga qamalib, mahkum singari qolishlari kerak emas, deydi. «Xotunlar qamalsalar, - ta`kidlaydi u, - tarbiyasiz qolarlar. Tarbiyasiz xotunlar ulusning o`limi uchun yo`l ocharlar».

Shuni ta`kidlash kerakki, muallif «Chin sevish» ni ixtilolchi (qo`mitachi) larning qamoqqa olinishi bilan tugatgani uchun tomoshabinda «kurashish befoyda, «olbasti»dek kuchli ingliz bosqinchilarini yengib bo`lmaydi», degan tasavvur tug`ilmasligi uchun «Hind ixtilolchilari»da istiqlol uchun kurashchilarning g'alabalarini ham bir necha bor ko`rsatadi. Dilnavozning ikki marta tutqinlikdan qutilishi, Rahimbaxshning ingliz ma`murlari bilan talofatsiz kurashuvi, ayrim sahnalarda osonlik bilan ustunlikka erishuvi buning dalilidir. Muallif istiqlol uchun qo`rqmasdan, dadil kurash yo`liga tushish kerak, degan fikrni ta`kidlab turadi. Shu bois ham Dilnavoz, qiz bola bo`lishiga qaramay, ingliz bosqinchilariga qarshi tap tortmay kurashadi. Bu - dramaturgning yigitmi-qizmi, yoshmi-qarimi, harakat qilish - «tebranish» kerak degani edi. Fitrat bu gaplarni darvesh Lolahardiyol tilidan aytadi: «Tiriklik tebranish demakdir... Tirik ekansiz, tebranursiz. Tebranmas ekansiz, o`lursiz!... Yurtimiz yonib turadir. Ulusimiz ezilib bitdi, eshitasizmi?»

Pyesada ozodlikni, erkni orzu qilib mushohadaga berilish o`rniga dadil harakatga kirishish kerak, degan g'oya ilgari suriladi. Buni Fitrat qari dehqonning nutqi orqali ifodalaydi. U «Chiqaylik yoki yashaylik. O`lib ketaylik yoki o`ldirib bitiraylik. Boshqa chora yo`q,» deydi. Chunki, uningcha, mahkumlik sirtmog`iga tushgan millat mustabidlar changalidan o`zini o`zigina qutqarishi mumkin. Uning «O`zlik kamarimizni yetti yerdan bog`lab (ketmonini ko`tarib), mana shu bilan uning boshini ezmasak, tashqaridan kelib bizni qutqarmas», degan fikri g'oyat ahamiyatlidir.

Fitratning pyesa orqali turkistonlilarga singdirmoqchi bo`lgan fikrlaridan yana biri «birlik» g'oyasidir. Rahimbaxsh «inglizlarni tarqatmoq uchun Hindistonni birlashtirmoq kerak», - deydi.

Ta`kidlash kerakki, Fitrat Turkistonda erk, istiqlol uchun kurashuvchilar safining kengayishiga ulamolarning to`siq bo`lib

kelayotganini Abdusubbuhning Mavlono No`monga aytgan quyidagi gapi orqali ifodalaydi: «Siz mullalar tutash (doimo-N.D.) shunday qilasiz... Ulusni yetmish to`rt bo`lak qildingiz. Har bo`lakni boshqalarig`a yov etdingiz. O`lkamizni ichki janjallar bilan to`ldirdingiz».

Bulardan xulosa qilish mumkinki, Fitrat «Chin sevish» dagiga qaraganda ham «Hind ixtilolchilari»da Turkistonni ko`proq nazarda tutgani sezilib qoladi.

«Hind ixtilolchilari»ga muallif ishchilar obrazlarini ham kiritgan. Bu bilan yozuvchi, bir tomondan, sho`ro mafkurachilarining «ko`zini shamg`alat qilmoqchi», proletariat sinfi vakillari obrazini o`z asariga kiritganini ko`rsatmoqchi bo`lgan. Ikkinchi tomondan, o`z g`oyasi, ya`ni ishchimi, savdogarmi, dehqonmi barchasi uchun milliy istiqol birinchi o`rinda turishini anglatishdir. Fitrat «proletariatning baynalminal maslakdoshligi, maqsaddoshligi va o`rtoqligi» g`oyasini ilgari surmaydi. U «uchinchi ishchi» tilidan shunday deydi: «Men zulmga qarshu ishlaymen, bu yo`lda ochlikdan o`lsam-da, mayli».

Fitratning «Chin sevish», xususan, «Hind ixtilolchilari» pyesalarini qahramonlik asarlari ham deyish mumkin. Dramalarda jasurlik, mardlik, qahramonlik ulug`lanadi. «Hind ixtilolchilari»da afg`on xalqining bo`ysunmas irodasi, erksevarligi alohida ta`kidlangan. Dramaga kiritilgan afg`on xalqi vakili Guldoxonning jasurligi, qahramonligi boshqalarga ibrat qilib ko`rsatilgandek tuyuladi. Umuman, istiqlol yo`lidagi jasorat, erksevarlik ataylab ulug`lanadi. Drama personaji Badrinat tilidagi bu so`zlar shunday ifoda etiladi: «Afg`onlar - botir kishilar. Inglizlarning bir qilig`i bor: ingliz bo`lmagon har kim bilan ko`rushganda, buyuk bir kattalik bilan gapurarlar, ko`p so`ziga javob-da bermaylar. Biroq bir afg`onni ko`rgach, yalinurg`a majbur bo`lalar».

Fitrat istiqlol mavzusida drama yaratar ekan, asosiy g'oyasining taqozosi bilan obrazlar, xarakterlarning badiiy sayqaliga yetarlicha e'tibor bermaydi. Sababi, bosh g'oyani tomoshabinga to'la yetkazish ma'lum darajada publitsistiklikni, «fikriy yalang'ochlik»ni talab etardi. Munaqqid Vadud Mahmud birinchi pardaning kamchiligi tarzida «...Lolahardiyol degan bir kishining uzoq nutqi orqasida birdan-bir «yurtimiz yonib turadi, ulusumuz ezilib bitdi, eshitasizmi» kabi munosabatsiz bir murojaati sovuq chiqqan. So'ngra, bunday xitobning kimga aytilganini yozuvchi o'ylamagan kabidir. Chunki asarda ko'rilgani kabi Rahimbaxshning so'zlari Lolahardiyolning so'zlaridan, muhokamalaridan yuksak»³² degan gaplarini keltiradi. Vadud Mahmudning e'tirozi, umuman san'at asarlariga qo'yiladigan nuqtai nazardan to'g'ri. Lekin bu yerda, bizningcha, pyesaniig bosh g'oyasini hisobga olmoq lozim. Ma'lumki, siyosiy mavzuni ochish uchun qo'llanilgan publitsistika har qanday adabiy asarning ma'lum darajada badiiyligiga xalal yetkazishi tabiiydir.

«Hind ixtilolchilari» pyesasini tahlil etishda ana shu xususiyatni hisobga olish zarur deb o'ylaymiz. Dramada ayrim monologlarning uzunroq chiqqanini, ba'zi personajlar nutqining kitobiyroq bo'lib qolganini ham shunday izohlash mumkin.

Pyesada mustamlakachilar vakillarining ham obrazi yaratilgan. Bular orasida Marling obrazi ancha puxta ishlangan. Uning Mavlono No'monni o'z tomoniga og'dirishi tabiiy chiqqan.

Dramadagi Okunar, Porlinson obrazlari haqida bunday deyolmaymiz. Bu obrazlar nisbatan jo'nroq va sxematikroq xususiyatga ega. Buning boisi yana Fitratning pyesadan ko'zlagan maqsadi bilan bog'liq, ya'ni mustabidlar qanchalik kuchli va yovuz bo'lmasin, ularni mahv etish mumkin va lozim. Xuddi shu nuqtai nazardan tilchi (josus) ayolning istiqlolchilar tomonidan sahnada otib

³² Mahmud V. Hind ixtilolchilari (haqida)//Turkiston. 1923. -21 okt.

o`ldirilishini ham shunday izohlash mumkin. Sotqin va josuslarning jazosini tomoshabin ko`z oldida berish, muallif maqsadiga ko`ra, saboq vazifasini o`tash kerak.

Drama xotimasi muallif g`oyasining yorqin ochilishiga monandir. Pyesa personajlarining birgalikda: «Yurtimizni qutqarurmiz. Yashasin, istiqlol!» deb yugurib ketishlari asardagi bosh g`oyaning mantiqiy yakunidir.

Xulosa qilish mumkinki, Fitratning «Hind ixtilolchilari»da milliy - ozodlik talqini ham tarixiylik nuqtai nazaridan, ham badiiylik jihatidan o`rinli chiqqan. Muallif asarida qo`llagan publitsistik ruh, romantik tasvir bosh g`oya talabidan o`zini oqlaydi. Shu bois, uni madaniy merosimizning mustaqillik mavzusiga bag`ishlangan eng yaxshi asarlari qatoridan munosib o`rin oladi, deb hisoblaymiz.

XULOSA

Taniqli fitratshunos olim, professor Hamidulla Boltaboyev Abdurauf Fitrat hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan juda ko'p xorijiy manbalarda, ayniqsa, zamondoshlarining xotiralarida uning nomiga doim "shoir" sifatlashi qo'shib aytilganini alohida ta'kidlab o'tadi. Bu shunchaki hurmat ma'nosi bo'lmay, balki unda shoirlik iste'dodining ham borligi, dastlab shoir sifatida tanilganligiga ishora hamdir. Chunki, uning dastlabki asarlaridan biri Istambulda chop etilgan "Sayxa" majmuasidir. Bu to'plamga kiritilgan she'rlarni to'liq o'qish hozircha o'zbek kitobxonlariga nasib etmagan bo'lsa-da, bu she'rlar haqida Fitratning zamondoshlari adabiy tanqidchilarning yozilgan asarlaridan ayrim ma'lumotlarni olamiz. To'plamdan olib "Sadoi Turkiston"da chop etilgan ayrim she'rlar, ulardan parchalar esa o'zbek she'rxonlariga ma'lum. "Sayxa" o'z davrida zulm o'chog'iga otilgan bombaday ta'sir qildi. Buni shoirning Fayzulla Xo'jaev, Sadridin Ayniy kabi zamondoshlari ham, xorijdagi adabiyotshunoslar ham qayd qilganlar.

Fitratning bizga ma'lum bo'lgan keyingi she'rlaridan biri uch nasriy va bir nazmiy she'rdan iborat «Yurt qayg'usi»dir. Fitrat muharrirlik qilgan "Hurriyat" gazetasida chop etilgan bu she'rlar yoniq vatanparvarlik tuyg'ulari bilan sug'orilgan edi. Fitrat yangi she'riy shaklda mumtoz Sharq she'riyatidagi singari yuksak obrazlilikni iste'foda etgan holda har qanday g'ofil qalbni ham titroqqa solguvchi zamzamali she'r bitdi. Biz yuqorida bu she'rlarni ham g'oyaviy, ham badiiy jihatdan imkon qadar tahlil qilishga harakat qildik. Bu tahlillar "Watanni onaga qiyoslash an'anasini Fitrat boshlamaganmikan?" degan bir taxminni keltirib chiqardi. Ehtimol, olimlarimizning keyingi kuzatishlari bunga ham aniqlik kiritadi.

Fitrat o`z ijodini fors-tojikcha she`rlar bilan boshlagan bo`lsa-da, yigirmaga yaqin oz sonli she`rlari bilan ham turkiy xalqlar dunyosida millatparvar va yoniq bir shoir sifatida tanildi.

Fitrat ijodida vatanparvarlik, millatparvarlik, hurlik va ozodlik istagi mavzulari yetakchi o`rin tutadi. Fitratning yurt birligi, hurligini muqaddas bilib, bu yo`lda kurashgan qator salaflari, safdoshlari bu yo`lda qurbon bo`ldilar: Mirmuhsin Shermuhammedovni toshbo`ron qilib o`ldirish haqida hukm o`qilgach, u do`stlari yordamida hukmni qamoq jazosi bilan almashtirishga muvaffaq bo`ladi, keyin esa Ufaga qochadi. Haqiqatning tirik timsoliga aylangan Mahmudxo`ja Behbudiy Qarshi begi tomonidan o`ldiriladi. Fitratning Mirmuhsin va Behbudiyga bag`ishlangan she`rlari haqli ravishda istiqlol manzumalariga aylandi.

Fitrat she`riyati faqatgina dardmand, o`tli she`rlar majmuasi bo`libgina qolmadi. Zamondoshlari to`g`ri ta`kidlaganlaridek, u o`zbek she`riyatida yangi tizim, barmoq vaznidagi she`r shakllariga yo`l ochdi. She`riyat boshqa millatlardan o`zlashtirib olingan vaznlardagina emas, balki turkiylarning ruhidan otilib chiqqan, millatning nutq va talaffuz tovushlariga mos bo`lgan, og`zaki adabiyotda juda ko`p qo`llanish barobarida charxlanib, sinovlardan o`tgan, aruz hukmronligi davrida ham Yassaviy, Boqirg`oniy, Qul Ubaydiy, Mashrab, keyinchalik Muqimiy she`rlarida muvaffaqiyat bilan iste`foda etilgan barmoq vaznini to`la o`zlashtirgandagina yuksak parvoz etajagini nazariy jihatdan asoslabgina qolmay, o`z adabiy tajribasi orqali ham isbotlab ko`rsatdi. U “Aruz haqida” risolasida bunday deydi: “Barmoq vaznida she`rni boshlab Cho`lpon yozdimi, men yozdimmi – esimda yo`q. Faqat shunisi ma`lumki, barmoq vaznini nazariy jihatdan yoqlab chiqqan birinchi o`zbek millatchisi men edim.”. U yana tajribali bir olim sifatida ogohlantirib

aytadiki: “seni bir vaqt Fitrat boshliq bir guruh millatchilar yoqlag’an edilar”, deb barmoq vaznin tashlash to`g`ri emas”.

Fitrat mumtoz adabiyotni ham, mumtoz poetikani ham, zamonaviy adabiyot nazariyasini ham, jahon adabiyotini ham yaxshi bilar edi. Mana shu bilganlarining hammasi uning dramaturgiyasi, publitsistikasida bo`lgani singari lirikasida ham sintezlashdi. O`z ijodini aruz bilan boshlagan iste`dod sohibi keyinchalik sərbast, barmoq va sochim she`r shakllarida ham samarali ijod qildi. Bu she`rlar o`zining chuqur mazmuni, yuksak badiiyati, obrazlari, badiiy san`atlari bilan Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Furqat singari turkiy adiblar ijodiga hamohang bo`lsa, teran falsafiyligi bilan Bedilni, yuksak pafosi bilan Hofizni, xalq qalbiga yaqinligi bilan Yassaviyni esga soladi, millatparvarlarcha isyonkorlik ruhi esa faqat va faqat Fitrat qalbidan otilib chiqqan vulqondir.

Fitrat “shoir” nomli she`rida “Emish... Shoir sevgilisiga yozgan bir yozuvda qayg’ularini to`kmish, So`zlarining eng oxirida ondin Ruhi uchun bir oz ko`mak istamish” deydi va “Ma`shuqidin marhamatli bir ko`mak ko`rmay” she`rxonlarga murojaat etib “ingrab turgan jonini qo`llagaylar, bir oz ko`mak etkaylar” deb o`tinadi. Shakshubhasiz aytish mumkinki, Fitratning she`rlari san`at ixlosmandlari “ko`nglini ko`tarmak-chun” yordam beradi va ularni “bashariyat dunyosi ko`klari sari” yuksaltgani talpinadi. Shoirga badiiy so`z ixlosmandlari tilidan uning o`z so`zlari bilan aytamiz:

Ur, ur!.. Sening tirnoqlaring nozli, nozli urduqcha,
Yuragimning bitib qolgan yaralari ochilsun!
Cholg’i qili sening nozli tirnog’ing-la titrarkan,
Umidimni qoplab turgan qora bulut yirtilsun!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayniy S. Ta`rixi inqilobi Buxoro. – Dushanbe, “Adib”, 1987.
2. Alloma adabiyotshunos. Jamoa to`plam. – T., Fan, 2006. – 68 b.
3. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san`atlar. – Buxoro, 1994. – 106 b.
4. Afoqova N. Jadid she`riyati poetikasi. – T., Fan, 2005. – 140 b.
5. Abdurauf Fitrat milliy fenomeni, adabiy, ilmiy-nazariy merosi, ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga bag`ishlangan birinchi jumhuriyat ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 1992.
6. Adabiyot nazariyasi: Ikki tomlik. – Toshkent: Fan, 1978, I tom.
7. Aliyev A. Fitrat va Umar Hayyom // Nafosat, 1992, 3-3-son.
8. Belinskiy V. Tanlangan asarlar. T., O`zdavnashr, 1955. – 512 b.
9. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – T., A.Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. –288 b.
10. Boltaboyev H. Fitrat va istiqlol ma`naviyati // Fitrat A. Tanlangan asarlar. To`rt tomlik. 1-tom. – T., Ma`naviyat, 2000, – 5-30-b.
11. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – T., O`qituvchi, 1995. – 112 b.
12. Fitrat A. Tanlangan asarlar. To`rt tomlik. 1-tom. – T., Ma`naviyat, 2000. – 256 b.
13. Fitrat A. Tanlangan asarlar. To`rt tomlik. 2-tom. – T., Ma`naviyat, 2000. – 208 b.
14. Fitrat A. Tanlangan asarlar. To`rt tomlik. 3-tom. – T., Ma`naviyat, 2003. – 256 b.
15. Fitrat A. Tanlangan asarlar. To`rt tomlik. 4-tom. – T., Ma`naviyat, 2006. – 336 b.
16. Fitrat A. Yurt qayg`usi // Fan va turmush. – 1990, 9-son. – 7-bet.
17. Fitrat va milliy taraqqiyot. Jamoa to`plam. – T., Fan, 2008. – 76 b

18. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati.-T., Sharq, 1999.
19. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha izohli lug`ati. – T., O`qituvchi, 1983. – 368 b.
20. Jalolov A. Jadid adabiyotida milliy ozodlik va istiqloq g`oyalari // O`TA, 1996, 4-son. – 16-23-b.
21. Karimov N. Mavlono Fitrat // Fan va turmush. – 1988, 7-son. – 23-25-b.
22. Karimov N. Fitratning shaytonga isyoni // O`zAS, – 1993, 20 avgust.
23. Karimov E. Adib haqida so`z // Navqiron Buxoro. – 1992, 6-son, – 15-16-b.
24. Karimov E. Fitratning hayoti va ijodi // O`TA, 1990, 3-son, – 226-29-b.
25. Navoiy asarlari lug`ati. Tuzuvchilar: P.Shamsiyev va S.Ibrohimova. – T., G`ulom nomidagi «Adabiyot va san`at» nashriyoti, 1973. – 784 b.
26. Nazarov B. Adabiy meros va yangicha fikrlarsh // O`zAS, 1989, 26-fevral.
27. Olimjon H. Fitratning adabiy ijodi haqida // Olimjon H. Mukammal asarlar to`plami. 10 jildlik. 6-jild. – T., Fan, 1982, – 205-242-b.
28. Qosimov B. Maslakdoshlar. – T., Sharq, 1994. – 160 b.
29. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T., «Xalq merosi» nashriyoti, 2004.
30. Rajabov D. Badiiy obraz va ritm. – Buxoro.
31. Rajabov D. Fitrat barmoq she`riy tizimi haqida // Alloma adabiyotshunos. Jamoa to`plam. – T., Fan, 2006, – 31-34-b.
32. Rahim Gulshan Muhiddin qizi. Abdurauf Fitrat va jadid adabiyoti. – Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 1999. – 26 b.

33. Rahmonov V. She`r san`atlari.-T., Yozuvchi, 2001.
34. Sul-ton I., Mamajonov S. Madaniyatimizning ikki siymosi // O`zAS, 1988, 3- iyun.
35. Sul-tonov I. Adabiyot nazariyasi.-T., O`qituvchi, 2002.
36. Xo`jaev F. Buxorodagi inqilob va O`rta Osiyoning milliy chegaralanishiga doir // Tanlangan asarlar. Uch tomlik. 1-t. – T., Fan, 1978, – 98-99-b.
37. G`aniyev I. Fitrat va Fitratshunoslik. – T., Fan, 2005. – 300 b.
38. . Sharafiddinov O. Abdurauf Fitrat // Yoshlik. – 1990, 5-son. – 63-65-b.

14250 ta so`z

REJA:

KIRISH. Ishning umumiy tavsifi.

**I.BOB. FITRAT VA ILMIIY-NAZARIY QARASHLAR
TARAQQIYOTI.**

I.1. Fitrat mumtoz adabiy asarlar xususida.

I.2. Fitrat – adabiy portretlar ustasi.

II.BOB. FITRAT VA MILLIY SHE`RIYAT TARAQQIYOTI.

II.1. Abdurauf Fitrat – iste`dodli shoir.

II.2. Milliy ong va milliy she`riyat.

III.BOB. FITRAT DRAMALARI VA MILLIY TAFAKKUR

III.1. Fitrat dramalarida milliy uyg`onish g`oyasi.

III.2. Fitrat dramalarida milliy ozodlik masalasi.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.